

M. Abuzalova,
G. Toirova

**HOZIRGI
O‘ZBEK TILI
(MORFOLOGIYA)**

O‘quv qo‘llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

M.Abuzalova, G.Toirova

HOZIRGI O'ZBEK TILI

(Morfologiya)

(5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun «Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya» fanidan amaliy mashqlar to'plami)

Toshkent
«Tafakkur avlodi»

2020

NAVOIY NOMIDAGI
35073
ILM VA MA'RIFAT
ANBOROT-RESURS MARKAZI

UO'K: 811.512.133'366(075.8)

KBK: 81.2O'zb-2

A 15

A15 Abuzalova M. Toirova G.

Hozirgi o'zbek tili (Morfologiya) [Matn]: o'quv qo'llanma / M.Abuzalova, G.Toirova. – Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2020. – 128 b.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining keyingi qator qarorlariga muvofiq ta'limning barcha bo'g'inlari uchun malakaviy talablar ishlab chiqildi va analga joriy etildi. Malakaviy talablarda belgilangan ta'lim mazmuni, usuli, ta'lim oluvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, hosil qilishi zarur hisoblangan malaka va ko'nikmalar avvalgi davr ta'lim mezonlari hamda talablaridan tubdan farq qiladi. Ushbu taqdim etilayotgan "Hozirgi o'zbek tili. Morfologiya" o'quv qo'llanmasi ham o'zbek tilshunosligi qo'lga kiritgan ilmiy yutuqlar asosida yangicha shakl va mazmun kasb etgan.

"Hozirgi o'zbek tili" o'quv fani doirasida bakalavr hozirgi o'zbek tilining fonetikasi, leksikasi, morfemikasi, so'z yasalishi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi haqida tasavvurga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

Mazkur o'quv qo'llanmada tilning morfologiya sathi birliklari - so'z turkumlari, grammatik shakllar va ularning uslubiy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan hamda mavzularga mos holda ko'p topshiriqli mashqlar hamda nostandart test va keyslar berilgan. Tanlangan mashqlar tizimi talabalarni ijodiy yondashishga, mustaqil fikrlashga undaydi. Zero, amaliy mashg'ulotlarda talabalar "Hozirgi o'zbek tili" fanining o'ziga xos nazariy xususiyatlariga doir ilmiy masalalarni amaliy jihatdan o'rganishadi.

Mas'ul muharrir:

R.R.Sayfullayeva – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

M.S.Ernazarova – filologiya fanlari doktori, dotsent

S.A.Nazarova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4-oktabr 892-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9943-6690-4-8

© **Abuzalova M. Toirova G.**
©«Tafakkur avlodi», 2020

SO‘ZBOSHI

*O‘qituvchini hurmat qilmaganni
men ham hurmat qilmayman.*

Sh.M.Mirziyoyev

Mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davrida til va ma‘naviyat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masala bo‘lib kelmoqda. Dunyo mamlakatlari bilan global sohalarda o‘zaro aloqalar o‘rnatilayotgan bugungi kunda har bir millatning ruhiyatini o‘zida aks ettiradigan til hodisalarini substansial asoslarda o‘rganish shu xalqning ma‘naviy qadriyatlari bilan bog‘liq bilimlarni oshirishda muhim omildir. 2016-yilning 30-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatning yetakchi olimlari, ziyolilari, akademiklari bilan uchrashib, ular bilan ilm-fanni yanada rivojlantirish, fan, ta‘lim va ishlab chiqarish integratsiyasini amalga oshirish yuzasidan suhbatlashib, kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, fundamental yo‘nalishlarni rivojlantirish, akademiklar maktabini yaratish, yetakchi olimlar salohiyati va tajribasidan samarali foydalanish yuzasidan takliflar berib, bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilayotganini, zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin ekanini ta‘kidlab o‘tdi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»,

¹ Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили//Халқ сўзи.-2017.-6 янв. –Б.1

2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan «Davlat tili haqida»gi Qonuni handa mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu qo‘llanma muayyan darajada xizmat qiladi.

Ma‘lumki, mustaqillik yillarida millatimiz ma‘naviy qadriyatlari va axloqiy ustunlarimizning tiklanishi hamda kamol topishiga poydevor yaratildi. Ona tilimiz mavqeyining tiklanlanganligi, uning davlat tili maqomiga ega bo‘lganligi shular jumlasidan. Shuning uchun Birinchi Prezidentimiz – Islom Karimovning “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida ona tili va milliy ruh, milliy ma‘naviyat, davlat tili madaniyati tushunchasiga e‘tibor konseptual xarakterga ega. Demak, bugungi kunda ona tili, o‘zga tillarga hurmat muammosi bilan birga davlat tili madaniyatini yuksaltirish asosiy vazifalardan biri bo‘lsa, iste‘molga kirayotgan davlat tili madaniyati tushunchasi esa axloqiy, ma‘naviy kategoriyadan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa tilning milliy tabiati yaqqol aks etadigan grammatik qonuniyatlarni ana shu metodologik asoslarga tayangan holda chuqur tahlil qilish, muammoga til va tafakkur, til va ma‘naviyat, til va madaniyat mushtarakligidan kelib chiqqan holda munosabatda bo‘lishni taqozo qiladi.

Har qanday millatning o‘zligi uning tilida yaqqol namoyon bo‘ladi va uning ontologik belgisi sifatida amal qiladi. Ayniqsa, bu tilning grammatik qurilishida yorqin ifodasini topadi. So‘zlararo bog‘lanish usullari, bog‘lovchi omillarning xususiyatlari va tarkibi, so‘z turkumlarining milliy tafakkur tarziga mos bo‘lishi, milliy o‘ziga xos xususiyatlari bu hodisalarning har

birini milliy ruhiyat va ong, tafakkur tarzi tushunchasidan kelib chiqqan holda va u bilan dialektik aloqadorlikda o'rganishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining davlat dasturida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirish tilshunoslik sohasida ham chuqur va yangicha izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Ayni holat oliy ta'limda "Hozirgi o'zbek tili" o'quv fanini o'qitish bo'yicha tatbiq etilayotgan nazariya, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy usullari sohasidagi so'nggi yutuqlarni chuqur o'rganish va tahlil etish dolzarbligidan dalolat beradi hamda mazkur o'quv qo'llanma talabalarga o'zbek tili morfologik vositalarining lisoniy imkoniyatlarini yetkazishga xizmat qiladi.

Ushbu qo'llanma o'z mohiyat e'tibori bilan o'zbek filologiyasi bakalavri ixtisosligi bo'yicha ta'lim olayotgan II bosqich talabalariga mo'ljallangan amaliy mashqlar majmuyidan iborat. Bugungi o'qituvchi tilimiz qurilishining turg'un, tavsifiy talqinini emas, balki uning imkoniyatlarini, har bir birligining rang-barang sharoit va qurshovlarda xilma-xil ma'no hamda vazifalarda kela olishini, yaqin, o'xshash, noo'xshash, zid birliklar bilan yaqinlashish va uzoqlashish sabab, natija va sharoitlarini bilishi kerak. Ushbu qo'llanmada so'z tukumlari, grammatik shakllar tizimi, ularning morfologik xususiyatlari inobatga olingan mashqlar berilgan.

"Hozirgi o'zbek tili (Morfologiya)" fanidan tayyorlangan ushbu mashqlar to'plami oliy hamda o'rta maxsus ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar va filologlar uchun tavsiya

qilinadi. Qo'llanma 5 120100 – Filologiya va tillarni o'qitish(o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi "Hozirgi o'zbek tili" fanining o'quv fani namunaviy dasturi asosida o'qitiladigan "O'zbek tili morfemikasi va derivatsiyasi" va "Morfologiya" bo'limlari yuzasidan amaliy, seminar, mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini bajarish uchun mo'ljallangan.

Qo'lingizdagi bu qo'llanma kamchiliklardan, takomillashtirishni talab etadigan munozarali tomonlardan xoli emas. Qo'llanmani mukammallashtirishga qaratilgan har qanday taklif va mulohazalarni mualliflar mammuniyat bilan qabul qiladilar.

Sayfullayeva Ra'no Raupovna
O'zMU professori, filologiya fanlari doktori

Derivatsion va grammatik morfemalar

1-mashq. 1-topshiriq. Soʻzlarni koʻchiring. Soʻzlar tarkibidagi sodda va murakkab tuzilishli affikslarni ajrating. Murakkab tuzilishli affikslarning yaxlitlanish jarayonini izohlang.

Gulchilikni, zargarchilikning, oʻntachasini, salomlashmoq, loygarchilikdan, qahramonlarcha, chorvachilikdan, isrofgarchilikni, yigitchasiga, saharlab, xayrlashtirmoq, oʻgʻilchasiga, gullabdi, arazlashmoq, mardikorchilikni, oylab, ishlab, shodlantirmoq, sargʻimtirroq, savalattirmoq, elektrlashtirilmog, suhbatlashdilar, ekranlashtirdi, afsuslanmoq, polkovnikning, suvoqchilik.

2-topshiriq. Oʻzingiz bilgan chet tillaridan affikslarda murakkablashish hodisasiga misol yozing.

2-mashq. 1-topshiriq. Matnni oʻqing. Soʻzlarni asos va morfema qismlarga ajrating.

U butun nutqini Istiqlolga muhabbat uygʻotishga qaratdi:

— Istiqlol! Mustaqillik. «Oллоhga ming qatla shukurlarkim, bu kunlarga ham yetishdik. Koʻchalarda jar solib: «Suyunchi!», «Suyunchi!» deb uyma-uy yuradigan zamon keldi!

Muxtoriyat!..Oh-ho!.. Bunga yetmoq niyatida ne-ne kurashlar boʻlmadi? Ne-ne asl farzandlarimiz jonlarini fido qilib, qurbon boʻlib ketmadilar. Istiqlolning bu qadar jon fido qilgulik ne sehri, ne moʻjizasi borki, asrlardan buyon insoniyat Istiqlol uchun, hatto bir quloch yeri bor xalqlar ham jon olib, jon berib kurashgan. Axir, bizning Turon yurtimiz goʻzallikda ham, boylikda ham Xudoning marhamati yozilgan bir zamin

emasmidi? Yillar bo‘yi talanmadimi? O‘zimiz qaytadan ega bo‘lganimizga shukurlar! Muborak bo‘lsin!

Alisher Navoiy «Oltin qafas» deb karomat qilganlaridek, qafasda parvoz qilib bo‘lmaydi! Qafasdagi qushning sudraluvchi jonivordan ne farqi bor, axir!

Yurt bosqinlari bizning qanotimizni qayirdi. Vaholanki, xalqimizning jahonga parvoz qilarli qanoti bor emasmi? Endi qayrilish bilmasin bu qanot? Iloho, omin!

(Shukrullo. «Tirik ruhlar»)

2-topshiriq. Matndagi derivatsion morfemalar ishtirok etgan so‘zlarni ko‘rsating.

Namuna: mustaqillik...

3-topshiriq. Topgan so‘zlaringizni yasalish asosi bo‘yicha quyidagi jadvalga joylashtirib chiqing.

FE'L	
OT	
SIFAT	
RAVISH	

3-mashq. 1-topshiriq. Matni o‘qing. Grammatik qo‘shimchalarni aniqlang va ularni quyidagi chizmalarga joylashtiring.

Afg‘onistonning Sind daryosi bo‘yida Jaloliddinning `00–750 kishilik qo‘shini bilan 30000 kishilik mo‘g‘il qo‘shini

yovlashdi. Aytishlaricha, o'sha jangda odamlarning qoni shu darajada ko'p to'kildiki, Sind daryosida suv o'rnida qon oqdi. Sulton Jaloliddinning navkarlari dushman bilan sherdek olishib, faqatgina Jaloliddinning o'zi daryoning narigi qirg'og'iga tirik suzib o'tib ketdi: omon qoldi.

Bu jangni o'z ko'zi bilan ko'rib turgan Chingizxon hayratdan shunday deb yuborganini bilmay qoldi:

— Otadan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan. U sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang kabi botirdir... Otaga shunday o'g'il zarurki, u ikki girdob: olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa olsin...

Biz ana shunday arslon haybatli, botir va qo'rqmas, dushman oldida aslo tiz cho'kmas bobolarimizga farzand ekanligimizdan hamisha faxrlanamiz. Bir umr ulardan o'rnak olish orzusi bilan yashab o'tamiz.

(Darslikdan)



2-topshiriq. Grammatik qo‘shimchalarning qaysi so‘z turkumlariga birikkanligini ustunlar bo‘yicha to‘g‘ri joylashtiring.

FE'L	OT	SIFAT	SON	RAVISH	OLMOSH

3-topshiriq. Qo‘shimchalar ifodalagan grammatik ma‘nolarni izohlang.

4-mashq. Berilgan so‘zlardagi morfemalarning struktur tasnifi haqida nima bilasiz? Ularni sodda va murakkabligiga ko‘ra guruhlang.

Ikkilan, o‘ylan, mo‘lchilik, odamgarchilik, kuylash, kitoblar, pishiqchilik, isrofgarchilik, kompyuterlashtirish, tozalar, uygacha, xafachilik, ishchi, chorvachilik, suhbatlash, yasha, dehqonchilik, yog‘ingarchilik, do‘stlash, gulchilik, suvsira, borganda.

5-mashq. Derivatsion omonim qo‘shimchalardan foydalanib gaplar tuzing.

-- ma, -chi, -li, -dor, -ch, -(i)sh, -ar, -ik, -k, -ish, -qin, -chaq, -(a) y, -siz

Namuna: qat-qat qatlama, aqling bo‘lsa tashlama.

6-mashq. Quyidagi gaplarni o‘qing. Morfemalarni omonimlik xususiyatiga ko‘ra guruhlarga ajrating.

1. Hunar ado bo'lmis boylikdir. 2. Ilm kelinchakka o'xshaydi: u xilvat va pinhoniylilikni yoqtiradi. 3. Erinchak, dangasa insonlar hayotda hech qachon muvaffaqiyat qozonolmaydi. 4. Ishsizlik — illatning uyasi. Barvaqt turishga odatlaning, baraka topasiz. 5. Vafoli odamning do'stlari ham samimiy bo'ladi. Bevafo do'stdan jabrli dushman afzal.

6. Jonimdan o'zga yori vafodor topmadim,

Ko'nglimdin o'zga mahrami asror topmadim. (*Bobur*).

7. Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q (*Navoiy*).

8. Bilimdon va tadbirkor, raqobatbardosh yoshlar Vatanimizning kelajagi.

derivatsion omonimiya	– chak,
grammatik omonimiya	– ing,
derivatsion-grammatik omonimiya	– siz,

7-mashq. 1-topshiriq. Morfemik sinonimiyalarning o'zaro mosini topib, ularni belgilang.



2-topshiriq. Hosilalaning ma'no xususiyatlarini izohlashga, farqli tomonlarini topishga harakat qiling.

8-mashq. 1-topshiriq. Matnni o'qing. Kelishik va egalik shakllari qo'llanishiga e'tibor bering.

— Bolaginam, muzlab qolay debsan-ku! — dedi u tinmay. Issiq ko'rpaga o'rab qaynoq-qaynoq choy ichirishdi. Har choy ho'plaganimda jo'rttaga bir inqillab qo'yaman. Ichimga issiq kirishi bilan huzur qilib uxlab qolibman. Ertasiga birinchi qilgan ishim qishlog'imizda yashaydigan Soraxon folbinning ishlarini tekshirib ko'rish bo'ldi. Meni biron kishi komissiya qilib tayinlagani yo'q-ku, lekin shunchaki o'zim qiziqib qoldim-da. O'qituvchimiz unga ishonmanglar, hammasi yolg'on deydi. Yolg'on bo'lsa, nega xolamning shuhrati shunchalik yoyilib ketadi. Rom ochirib, dardiga davo so'rash uchun odam shunaqangi ko'p keladiki, shunaqangi ko'p keladiki, qishlog'imizdagi medpunkt uning oldida ip esholmaydi. Undan keyin, kelganlar quruq kelishmaydi. Birovi shoxdor qo'y, birovi sariq echki, birovi qog'ozga o'ralgan pul, bir xillari katta tog'orada to'rt quloqli somsa tashlab ketishadi. Men bilan o'qiydigan o'g'li Mirobiddinxo'janing kerilganini aytmayisizmi, bir o'zining ikkita velosipedi bor. Tunov kun, bittasini minib biroz sayohat qilgan edim, qosqonini egib qo'ygan ekanman, aka-uka meni tutib olib rosa do'pposlashdi.

Odamlar:

— Soraxon folbin to'ppa-to'g'ri xudo bilan gaplashadi! — deyishadi. Mirobiddinxo'ja bo'lsa maqtanib:

— Bizning uydan xudoning ovozi eshitilib turadi! — deydi.

Ishqilib, ana shu narsalarni tekshirib ko'rmoqchi bo'ldim-u, ertalab nonushtadan so'ng to'ppa-to'g'ri folbin xolamning uyiga qarab yo'l oldim. Hovlisida yettita xotin, beshta chol, uchta bola o'tirishibdi. Hammasi ham kasal bo'lsa kerak, rangi oftob urgan

xashakdek sap-sariq. Qalpoqni kiyib sekin ichkari kirdim. Folbin xolam qorong'i uyda o'tirib olib rom ochyapti, qarshisida bola qo'ltiqlagan mening oyimga o'xshagan cho'ziq yuzli bir ayol o'tiribdi.

— O'g'lingni sariq jin uribdi, qizim, — dedi folbin xolam (Xudoyberdi To'xtaboyev)

2-topshiriq. Ijodkorning boshqa asarlariga murojaat eting. Shakllarning poetik, tarixiy, dialektal, fonetik variantlarini toping va farqlang. Turli ko'rinishlari xususida nazariy fikrlarni bildiring.

Keys topshiriq

Matnni o'qing. Morfemalar yordamida yasalgan so'zlarni jadvalga joylashtiring.

VAZIR TUTISH TUZUGI

Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega bo'lgan kishilardan bo'lishi lozim: birinchisi — asillik, toza naslililik; ikkinchisi — aql-farosatlilik, uchinchisi — sipoh-u raiyat ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalada bo'lishlik; to'rtinchisi — sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Olgulik joyidan olib, bergulik yerga beradi. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, aytsalar eshitmaydi...

Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasli-yu zoti

yomon, hasadchi, gina, kek saqllovchi, qora ko'ngillik kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin.

Aqlli, bilimdon va hushyor vazir shunday bo' lurki, bir to'g'ri tadbir qo'llab g'anim dushmanini parokanda qilib yubora oladi, murosa-yu madora, xushmuomalalik bilan sipohni birlashtirib, dushman lashkarlarini o'ziga rom qiladi.

(«Temur tuzuklari» dan)

Faqat derivatsion morfemali so'zlar	Faqat grammatik morfemali so'zlar
asillik	qildim

Ham derivatsion, ham grammatik morfemali so'zlar

--

Yuqoridagi matndan suffiksial morfemalarni aniqlang va ular vositasida qaysi soʻz turkumiga oid hosila yasaganligini sahifada aks ettiring.

Suffiksial morfemalar - -lik (ot), -li (sifat),

Yuqoridagi matni davom ettiring, matningizda prefiksial morfemalar ishtirokidagi soʻzlardan foydalaning.

Baobroʻ vazir sermazmun hikmatlardan toʻgʻri xulosa chiqara oladi...

11-mashq. “Burch”, “Vijdon va turmush”, “Ma’naviyatli-manmi?”

Morfemik tahlil tartibi

1. Soʻz tarkibini maʼnoli qismlarga ajratish: oʻzak morfema va affiksial morfema.
2. Affiksial morfemaning funksional-semantik xususiyatiga koʻra turini aniqlash.

3. Affiksial morfemaning tuzilishiga ko'ra, shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini aniqlash; qo'shimchalarning o'zbekcha yoki o'zlashganligiga e'tibor qilish.

4. Affiksial morfema variantlarini aniqlash.

5. Fonetik o'zgarishga uchragan tovushlarni aniqlash.

Morfemik tahlil namunasi

Nozima boodobgina qiz edi.

1) *bo-odob-gina*;

2) *odob-o'zak* morfema; *bo - , gina* – affiksial morfemalar;

3) *bo* – sifat yasovchi; *- gina* – ozayirma sifat shaklini yasovchi;

4) *bo - , - gina* – tuzilishiga ko'ra sodda; *bo* – affiksining sinonimlari *ba - , - li (baodob, odobli)*; antonimlari *be - , - siz (beodob, odobsiz)*; omonimik xususiyati yo'q;

– *gina* – affiksining sinonimi, antonimi yo'q; omonimik xususiyatga ega (*bolaginam* – otlarda erkalash ma'nosini beradi; *bolamgina* – ayiruv – chegaralov yuklamasi)

Bo – forscha – tojikcha; *- gina* – o'zbekcha;

5) – *gina* affiksining variantlari – *kina, - qina*.

Test topshiriqlari

1. So'z tarkibidagi – *ma* qo'shimchasiga urg'u tushsa u qanday vazifa bajarishi mumkin?

A) sifat yasovchi

B) ot yasovchi

C) ot va fe'l yasovchi

D) fe'lining bo'lishsizlik shakli

E) A, B va C

2. Mehmonxonadagilarning quvnoq qahqahasidan Mahmudning mudroq ko'zlari katta ochildi.

Ushbu gapda nechta so'z yasovchi qo'shimcha borligini aniqlang.

- A) 2ta
- B) 3ta
- C) 4ta
- D) 5ta
- E) `ta

3. Lug'aviy shakl hosil qiluvchi qo'shimchalar berilgan javobni toping.


- A) -a, -moq, -gan, -sa, -gach
- B) -gach, -guncha, -roq, -sh(-ish), -imtir
- C) -t, -in, -oq, -dosh, -tir
- E) -ki, -di, -yan, -dan, -cha
- D) -indi, no-, ser-, -b(-ib), -a(y)

4. Kesimlik kategoriyasi tarkibiga kiruvchi qo'shimchalar qatorini toping.

- A) -di, -yan, -moqda, -moqchi
- B) -man, -san, -miz, -siz
- C) -sa, -m, -ng, -k, -ngiz
- D) -gin, -adi, -ni, -da
- E) A, B va C

5. Quyidagi qo'shimchalarning qaysilari ravish tarkibida yaxlitlanib qolishi mumkin?

- 1) -ga; 2) -dan; 3) -da; 4) -i (-si); 5) -lar
- A) 1, 2, 3, 4
- B) 1, 2, 3, 4, 5
- C) 1, 2, 3
- E) 4, 5
- D) 1, 2, 4, 5



Morfologiya (mustaqil so‘z turkumlari)

Fe‘l so‘z turkumi. Fe‘l lug‘aviy ma‘no guruhlari

9-mashq. Quyidagi jadvalda mustaqil va nomustaqil fe‘llarga xos xususiyatlar berilgan,ularni to‘g‘ri joylashtiring.


Mustaqil fe‘l	Nomustaqil fe‘l
biror so‘zni boshqarib yoki biror so‘z tomonidan boshqarilib keladi	lug‘aviy ma‘no asosidagi harakatni ifodalaydi
har qanday harakat bajaruvchi bilan ham bog‘lanadi	harakat zamon bilan bog‘lanishi mumkin
bevosita lug‘aviy ifodali harakat ma‘nosiga ega emas	zamonli va zamonsiz fe‘lni farqlaymiz
mohiyat e‘tibori bilan uchga: yordamchi fe‘l; ko‘makchi fe‘l; to‘liqsiz fe‘lga bo‘linadi.	fe‘l nisbatlari kategoriyasiga ega
fe‘l mayli kategoriyasiga ega	tuslangan va tuslanmagan fe‘lni farqlashni taqozo qiladi.
fe‘l va fe‘l bo‘lmagan so‘zning zamonini ko‘rsatadi	gapda biror bo‘lak vazifasida keladi

10-mashq. 1-topshiriq. Quyidagi tibbiyot olami xususidagi fikrlarni diqqat bilan o‘qing.

1. Kam yesang, uzoq umr ko‘rasan. Kimki o‘zidagi axmoqona kamchiliklarni yenga olsa, u irodalidir (B.Franklin).
2. Ortiqcha ovqatlanishdan o‘zni tiyish – organizm uchun buyuk tozalanish, ammo bu kasallikka qarshi malham emas (P.Bregg).
- 3.Izzat tilasang, kam de, Sihat tilasang, kam ye (o‘zbek xalq maqoli).
- 4.Hayot – bu ovqatlanish fojiasidir (A.Ernest).
5. Inson

sanchqi va qoshiq bilan o'ziga qabr qaziydi (P.Bregg). 6. Oldiga qo'yganni yemoq hayvonning ishi, Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi (A.Navoiy).

2-topshiriq. Gaplarda qo'llangan fe'llarni aniqlang va ularni quyidagi jadvalga joylashtiring. Ma'ruzada olingan ma'lumotlarga muvofiq so'zlar qatorini davom ettiring.



11-mashq. 1-topshiriq. Guruhingiz bilan 5-6 ta kichik guruhlariga bo'lining. Jamoadoshlaringiz bilan berilgan fe'llarni qanday harakat bildirishiga ko'ra guruhlariga ajrating.


Yurmoq, kezmoq, yo'rg'alamoq, pildiramoq, silamoq, tirnamoq, shapaloqlamoq, chimchilamoq, bobillamoq, javob bermoq, vag'illamoq, eslamoq, unutmog, yodlamoq, tubanlashmoq, rahmi kelmoq, xushomad qilmoq, yon bosmoq, maftun bo'lmoq, e'zozlamoq, yasamoq, qurmoq, bunyod etmoq, hosil bo'lmoq, chizmoq, holsizlanmoq, kuymoq, kuchlanmoq, o'ygaga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq, barpo qilmoq, arralamoq, parchalamoq, sayqal bermoq, randalamoq, esankiramog, dovdiramoq, g'azablanmoq, g'o'ldiramoq, vaysamoq, vaqillamoq.

2-topshiriq. Har bir guruh kelishgan holda fe'lning bir mazmuniy guruhini tanlasin. Ularga 3 daqiqa vaqt ajratilsin. Shu

vaqt oralig'ida guruhlar tanlangan fe'llarni sanashlari lozim. Vaqtdan ilgari misol topa olmagan guruh mag'lub bo'ladi.

3-topshiriq. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi yozuv taxtasida fe'l mazmuniy guruhlari klasterini tuzsin.

Namuna:



Fe'l derivatsiyasi

12-mashq. 1-topshiriq. Quyidagi yasama fe'llarga e'tibor bering. Yasovchi qo'shimchalarni unumli fe'l yasovchi va unumsiz fe'l yasovchilarga ajratib ko'chiring.

oshamoq, qonamoq, o'ynamoq, bo'shamoq, qiynamoq, shildiramoq, jildiramoq, qoraymoq, toraymoq, ko'paymoq, ozaymoq, oqarmoq, ko'karmoq, qisqarmoq, eskirmoq, qonsiramoq, suvsiramoq, tuzsiramoq, gumonsiramoq, birikmoq, yo'liqmoq, kechikmoq, zo'riqmoq, tinchimoq, boyimoq, changimoq, to'latmoq, berkitmoq, chirqillamoq, chirsillamoq, likillamoq, guvillamoq, shuvillamoq, mo'ltillamoq, bezillamoq, yarqiramoq, sirqiramoq, mo'ltiramoq, yaltiramoq, urug'la, mog'orla, bolala, chuhla, dodla, gumburla, sizla, senla, hozirla.

2-topshiriq. Har bir fe'lning yasalish qolipini hosil qiling.

Namuna: oshamoq = ot + a, kechikmoq = ravish + ik

13-mashq. 1-topshiriq. Quyidagi gaplardagi fe'llarni fe'l yasovchi va lug'aviy shakl yasovchi omonim qo'shimchalarga ajratib, jadvalga joylashtiring.

1. Amir Temur bobomiz o'z yurishlari davomida dunyoning qariyb yarmini egallagan.

2. Bolam bechora buncha ozib ketibdi?! Yoki ko'zikip qoldimikin – a?

3. Zebi hamma narsaga – mingboshiga ham, kundoshlariga ham – ko'nikdi.

4. Bolakay to otasi uni opichlamagunicha xarxasha qilaverdi.

5. Sen hamisha o'quvchilarni ma'rifat yo'liga boshla!

6. Ey bolakay, nimalarni o'ynayapsan-a, men bilan ham bir o'ynamaysanmi? Seni ko'rib quvnab ketyapman-ku!

Fe'l yasovchilar	Lug'aviy shakl yasovchilar
Gulla	Siltala

2-topshiriq. "Sizdan ugina, bizdan bugina" o'yini. Ikki guruhga ajraling. Belgilangan vaqt oralig'ida bir guruh ikkinchi guruhga fe'l yasovchi qo'shimchani aytadi, raqib jamoa esa shu qo'shimcha bilan so'z yasaydi. So'gra keyingi guruh esa lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha aytib, raqibdan misol so'raydi. Vaqt tugagunga qadar guruhlar savol-javobni to'xtatmasligi lozim.

Namuna: 1-guruh: -iq qo'shimchasi

2-guruh: yo'liq, orziq. –la qo'shimchasi

1-guruh: siltala...

14-mashq. 1-topshiriq. Quyidagi qo'shma fe'llarni tarkibiga ko'ra ikkiga ajratgan holda jadvalda ifodalang.

olib chiqmoq, olib qochmoq, abgor qilmoq, ado bo'lmoq, ayyuhannos solmoq, ishlab chiqarmoq, qiron solmoq, sotib olmoq, tartibga keltirmoq, oh urmoq, olib bormoq, xabar olmoq, olib kelmoq, javob olmoq, xalal bermoq, xabar olmoq.

ism+fe'l tipidagi so'zlar:

ado bo'lmoq.

fe'l+fe'l tipidagi so'zlar:

2-topshiriq. Ichki guruhlar bo'lingan holda, har bir guruh yuqoridagi fe'llardan 4 tadan tanlab oladi va ular ishtirokida kichik matn tuzadi. Matnga sarlavha tanlanishi, qo'llangan fe'llar ma'no va mazmun jihatidan bog'langan bo'lishi kerak.

3-topshiriq. Bo'lingan guruhlar quyidagi yordamchi fe'llarni ishtirok ettirib, tez fursatda so'z yasashlari kerak.

<i>aylamoq</i>	<i>urmoq</i>	<i>ko'rmoq</i>	<i>kelmoq</i>	<i>topmoq</i>
• shod aylamoq				


15-mashq. 1-topshiriq. Gaplarni diqqat bilan o'qing. Juft fe'llarga e'tibor bering.

1.- Qizim, qaynona, qaynotangni xizmatini yelib-yugurib ado etgin, yangi uyingda ham xuddi ota uyingdagidek yayrab-yashnab yurgin, turmush o'rtog'ing ishdan qaytganida uni


o'ynab-kulib kutib ol. Shundagina oilang hamisha seni qo'llab-quvvatlaydi. 2.–O'lib-tirilib topgan pulimni endi shularga berishim qoluvdi. Uyda achib-bijib yotib olib bor pulini yeb-ichguncha mehnat qilishsin, axir. 3.Ona hamisha bolasini yuvib-tarab, aylanib-o'rgilib voyaga yetkazarkan-u, ammo kezi kelganda ba'zi farzandlar birgina shirin so'zni onasiga ravo ko'rmas ekan. 4.Qolgan-qutgan bor ko'zga ko'rinadigan narsalarini pullab, ro'zg'orning kamchiligini yamab-yasqab, och bolalarini aldab-suldab qornini to'yg'izib tirikchilik qilardi.

2-topshiriq. Juft fe'llarni topib, quyidagi tartibda guruhlang:

A. Grammatik shakliga ko'ra:

biri ravishdosh, ikkinchisi boshqa shaklda  har ikki qismi bir xil shaklda:

B. Tarkibiy qismining qo'llanishiga ko'ra:

qismlari yakka holda ishlatiladigan  ikkinchi qismi yakka fe'llar qo'llanmaydigan fe'llar

C. Qismlari yakka holda ishlatiladigan juft fe'llar:

qismlari o'zaro sinonim:  qismlari o'zaro antonim:
qism-larining ma'nosi yaqin:

Fe'lning tasniflovchi grammatik kategoriyalari

16-mashq. Qavs ichidagi so'zlardan mos javobni tanlang.

1. (*Fe'lning tasniflovchi kategoriyalari, O'zgalovchi kategoriyasi, Tarz ma'nosi*)– bu faqat shu turkumga xos grammatik shakllar sistemasi.

2. Tasniflovchi shakllar orasida (*mayl, harakat tarzi, nisbat*) fe'l leksemani modifikatsiya qilish darajasi jihatidan boshqalaridan ustuvor.

3. (*mayl, harakat tarzi, nisbat*) harakatning subyekt (bajaruvchi)ga munosabatini ifodalaydi.

4. (*majhul, o'zlik, orttirma*) nisbati UGMsi – «harakatning subyektini va obyektini birlashtirish, o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantirish».

5. (*Orttirma, majhul, o'zlik*) nisbatda ish-harakatning subyektini ortib, ular bevosita va bilvosita subyektga ajraladi.

6. (*Fe'lning tasniflovchi kategoriyalari, O'zgalovchi kategoriyasi, bo'lishli-bo'lishsizlik shakli*) kategoriyasining UGMsi «harakatning sodir bo'lish/bo'lmasligini ko'rsatish»dir.

7. Fe'lning harakat nomi uchun bo'lishsiz shakl (*-may, -maslik, -mas*) ko'rsatkichi.

8. (*harakat nomida, sifat doshda, ravish doshda*) «fe'lga otlik sintaktik va semantik xususiyatlarini berish» xususiyati mavjud.

9. (*-may/masdan, -maslik, -mas; -guncha*) – bo'lishsiz harakatga holat tusini berish ma'nosi asosida xarakterlanadi.

10. (*-(a)r, -gan, -ajak*) shakli mavjud darslik va adabiyotlarda umumzamon, doimiylik ma'nosini ifodalovchi sifat dosh shakli sifatida qaraladi.

17-mashq. Quyidagi gaplardagi fe'llarning nisbatini aniqlang va guruhlarga ajratgan holda fe'llarni ifodalang.

1. Bir mahal G'ulomjon tuynukdan erinib chiqayotgan tutunga qarab **so'zlandi**. (M. Ism.) 2. So'ng uzun do'nglik ortiga o'tib, **ko'rinmay ketdi**. (P. Qod.) 3. Yigit ko'zini yashirishga joy topolmay **qiynaldi**. (S. Ahm.) 4. Davlatbekovning **tug'ilgan** qishlog'i Bodomzor bu yerdan o'n bir chaqirim pastda. (P. Qod.) 5. Boboxo'ja domla ishdan **bo'shatildi**. (P. Tur.) 6. Sharofat xolaning so'zlariga zavqlanib **kulishdilar**. (N. Saf.) 7. Ona-bola uzoq **yig'lashdilar**, ko'z yoshlari bitguncha **bo'zlashdilar**.

(A.Qod.) 8. Bu qishloqda Avazning eng **ochilib** gaplashadigan tengdoshi shu Zamonali edi.(P.Qod.) 9. Rasmi, yomon xotindan **qochiladi**, zamona shum bo'lsa, yaxshi xotindan ham qochar ekan kishi. (A.Qah.)

18-mashq. 1-topshiriq. Bo'lishsizlik fe'lining harakat tarzi shakllarida qo'llanishiga misollar keltiring.

Namuna: *yoza ko'rma, bormay o'tirma...*

2-topshiriq. Uch guruhga bo'lining. Bo'lishsizlik fe'lining harakat tarzi shakllarida qo'llanishini quyidagi uch ko'rinishda ifodalang:

Yetakchi fe'lga qo'shiladi: *yozmay tur...*

Ko'makchi fe'lga qo'shiladi:

Har ikkalasiga qo'shiladi:

19-mashq. Ravishdosh shakliga oid variantlar va ularga xos xususiyatlarni to'g'ri belgilang.

- *(a)y* – davomli harakatning holat tusini ifodalash;
- *(i)b* – harakatning tamom bo'lish paytini ko'rsatish;
- *may/masdan* – harakatning boshlanish paytini ko'rsatish;
- *gach* – davomli/davomsiz harakatga holat tusini ifodalash;
- *ganda* –harakatning sodir bo'lish paytini ko'rsatish;
- *guncha* – bo'lishsiz harakatga holat tusini berish.
- *gancha* –harakatlarning bir paytdaligini ko'rsatish;
- *gani* –harakatga maqsad ma'nosini berish;
- *may/masdan* – harakatlarning bir paytdaligini ko'rsatish.

20-mashq. 1-topshiriq. Quyidagi gaplarni diqqat bilan o'qing va ularda qo'llangan fe'llarni ko'chiring.

Oyim harsillab nafas olgancha qorong'uda tugunchani titkilaydi. Keyin entikib-entikib yig'lab yubordi – rangi o'chgan ko'yi lablari titrab, yuzimga qarab turdi-da, Omonni ko'tarib uyga kirib ketdi.(O'.Hosh) Xazinachilar sipohlar orqasidan ikki otni yetaklashib, hudaychi yoniga yetdilar. (A.Qod.) Xo'rak orasi Otabek Zaynabdan so'rab, Kumushning uxlab yotganini bildi. (A.Qod.)Fojianing yigirmanchi kunida yana xatmi qur'on qililib, butun yurtga osh berildi. Sizdan o'zimni chaqdirgali kelgan emasman! – dedi yig'lagan ko'yi Zaynab. (A.Qod.) Arava omborga borib-kelguncha lavlagini xirmon qilib uyib tashlaymiz. (O'.Hosh) Berib yaxshi bo'lguncha, bermay yomon bo'l. (Maqol)

2-topshiriq. Quyidagi topshiriqlar ketma-ketligini bajaring.

- a) gaplarda qo'llangan fe'llarni o'zgalovchi kategoriyalar bo'yicha guruhlariga ajrating;
- b) harakat tarzi kategoriyasi aks etgan fe'llarni yozing;
- c) qo'shma fe'llarni toping;
- d) fe'llarni tuzilishiga ko'ra guruhlariga ajratib ko'chiring.

Fe'llarda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi

21-mashq. 1-topshiriq. Quyidagi gaplarni diqqat bilan o'qing. Kesim vazifasidagi so'zlarni ko'chiring.

1.Majlis yarim kechagacha cho'zildi. (O.Mux.) 2.Uzoqdan Navoiyning qorasi ko'ringunga qadar u amirning kelishiga ishonmagan edi. 3.Bizning bunday ulug' kunga erishganimizni otamiz ham ko'rganda, qanday quvonar edi. (Iboxon.) 4. Men ham doim qishloqda turganimda, mashinani o'rganib olardim. (H.Naz.) 5. Tuzalsa edi, odamlardek yura olsa, boshiga

ko'tarardi. (S.Ahm.) 7. Qayerdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan ekan, u yerda muvaffaqiyat qo'lga kiritiladi. («O'zb.ov.») 7. Istiqloq mendan fermer bo'lishni talab qilgan ekan, men bu vazifani a'lo darajada uddalashga va'da beraman. («Qashq.») 8. Na xotin, na farzand ko'rmagan, kimsasiz bechora bir yigit. (Uyg.) 9. Mening farzandim yo'q, gulbog'larim yo'q. (S.Nur.) 10. U hozir hammaning kallasini g'ovlatgan shum xabarni yo hech o'ylamayapti, yoki bu gapning menga sira daxli yo'q, deb ko'rsatmoqchi. (A.Mux.) 11. Domlaning yer olgani rost, buni Saidiyga bildirmoqchi emas edi. (A.Qah.)

2-topshiriq. Gaplardagi kesimlarni ifodalanishiga ko'ra quyidagi turlarga ajratib yozing.


Kesimlik kategoriyasi tarkibiy qismlarining yuzaga chiqishida uch holat farqlanadi:

a) kesimlik ma'nosining yig'iq ifodalanishi:

b) kesimlik ma'nosining yoyiq ifodalanishi:

d) kesimlik ma'nosining tafsiliy ifodalanishi:

3-topshiriq. Kesimlardagi tasdiq-inkor kategoriyasini quyidagicha guruhlarga ajrating:



4-topshiriq. Yuqoridagi gaplarda qo'llangan kesimlarning maylini aniqlang va 4 guruhga bo'lingan holda a) *xabar mayli*;

b) *shart mayli*; d) *buyruq-istak mayli*; e) *maqsad mayli*
qoʻllangan kesimlarni toping.

22-mashq. Quyidagi gaplarni oʻqing. Qavs ichidagi zamon va shaxs-son kategoriyalaridan mosini tanlab koʻchiring.

Oʻrinda ham gaplashaveramiz, sen juda **charcha(-yapsan, -ganman,-gansan)**. (I.Rah.) 2. Oʻzim koʻrdim, tosh chap yelkasiga **tush(-yapti,-ibdi,-ayotir)**. 3. Ustidan oshirib oʻq **ot (-gandim, -ayotgan edim, ibman-u)**, kiprik qoqmaydi-ya! (A.Qah.) 4. Quyoshku falakda **kezib yur(-ibdi,-gandi,-yapti)** umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.(Gʻ.Gʻul.) 5. Oʻzbek qizlari sevgisini **ayt(-adi,-maydi,-maymiz)**, bir umr pinhon **tutadi**. (Sayyor) 6. Bolang uch-toʻrt **qiynal(-yapti,-adi,-moqchi)**, keyin **oʻrganib ketadi**. (A.Qah.) 7. Shu atrofda yurgandir, **kelib qol(-arsan, -ar,-armiz)**. (S.An.)

Keys topshiriq

1-topshiriq. Hikoyani davom ettiring va sarlavha qoying.

Bir podshoh ogʻir xastalikka chalindi. Hakimlar bu dardni oʻn uch yoshli bolaning jigari davollashi mumkinligini aytdi. Podshoh amri bilan navkarlar mamlakat kezib, oʻz farzandini sotishga rozi boʻladigan noqobil ota-onani axiyri topdilar. Shunday qilib, podshoh ota-onaga sovgʻa-salomlar berib rozi qildi, qozilar: “Podshoh salomatligi uchun xalqning bir vakilini qurbon qilishi vojibdur”, – deb hukm chiqarib berishdi. Biroq, berahm jallod oʻz boltasi bilan bolaning boshida hozir boʻlgan paytda bola yigʻlash oʻrniga negadir tabassum qildi. Hayron boʻlgan podshoh undan soʻradi:

– Oʻzing oʻlinga ketyapsan, begʻam boʻlib jilmayishingning boisi ne?

Shunda bola podshohga qarab:

— ...

Davomi

(1-variant. - Bolaning erkalgini kim ko'taradi? Ota-onal! Ammo o'z ota-onam meni hozirgina mol-dunyoga almashdi. Da'voni kimga qiladilar? Qozilarga! Qozi o'limga fatvo chiqardi. Adolatni kimdan istaydilar? Podshohdan! Podshohga esa mening jonim kerak ... men bu olamning telba-teskari ishlariga ajablanib, jilmaydim, — deya javob qaytardi.

Bu gapni eshitib xaloyiq dod soldi, jallodning boltasi qo'lidan tushdi, podshoh yig'lab kelib, bolaning oyoqlariga yiqildi.

2-variant.....)

2-topshiriq. Fe'l zamonlari shakllarida transpozitsiyasi hodisasini kuzating va izohlang.

Fe'l so'z turkumi bo'yicha tahlil namunasi

Faqat mehnatgina insonning qiyofasini o'zgartiradi.
(L.Aragon)

1. **Leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra:** mustaqil fe'l;
2. **So'rog'i:** nima qiladi?
3. **Harakatning obyektga munosabatiga ko'ra:** o'timli fe'l;
4. **Harakatdan anglashilgan voqelikning borliqqa munosabatini ifodalash va gap kesimini shakllantirishda ishtirok etishiga ko'ra:** xabar maylida;
5. **Harakatning real yoki irrealligiga ko'ra:** bo'lishli fe'l;
6. **Ish-harakatning bajaruvchiga munosabatiga ko'ra:** orttirma nisbatda;

7. Zamoni ifodalashiga ko'ra: hozirgi-kelasi zamonda;
8. Tuslangan va tuslanmaganiga ko'ra: tuslangan fe'l;
9. Fe'l anglatgan lug'aviy ma'nosiga ko'ra: holat fe'li;
10. So'zshakl turiga ko'ra: sintetik shakl;
11. Tuzilishiga ko'ra: sodda yasama;
12. Yasalish usuliga ko'ra: affiksatsiya usulida yasalgan yasama fe'l [sifat + -r = asosdan anglashilgan belgiga o'tish].

Test topshiriqlari

1. Qaysi gapda mustaqil qo'llanilgan kesim ifodalangan?

- a) Motor gurillab mashina olg'a intildi.
- b) Oftoboyim eridan ham qo'lini yuvib qo'ltig'iga urgan edi.
- c) It hurar-karvon o'tar .
- d) Biz tomonlarga ham borib turing.

2. 1) Gul ochildi. 2) Yig'ilish ochildi.

Ushbu gaplardagi fe'llarning nisbatini aniqlang.

- a) majhul nisbat, o'zlik nisbat
- b) o'zlik nisbat, majhul nisbat
- c) har ikkala gapda majhul nisbat
- d) aniq nisbat, majhul nisbat

3. Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar qaysi qatorda berilgan?

- a) -aki, -oq, -choq
- b) -qi, -ay, -viy, -k
- c) -li, -iq, -a
- d) -qi, -iq, -iy

4. Qaysi qatorda aqliy faoliyat fe'llari keltirilgan?

- a) fikrlamoq, sevinib ketmoq, chaqirmoq
- b) fahrlamoq, pichirlamoq, ma'qullamoq
- c) imzolamoq, suyunmoq, sergaklanmoq
- d) ijod qilmoq, tushunmoq, o'ylamoq

5. Chin do'st uldirkim, do'stidan hech qachon ranjimaydi, agar xafa bo'lsa ham uzrini qabul qiladi.

Gapda nechta yasama fe'l bor?

a) 3 ta

b) 2 ta

c) 1 ta

d) yasama fe'l yo'q

6. Qaysi qatorda ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi orttirma nisbat shaklida?

a) Kuchli to'liqin uni oqizib ketdi

b) Karima u qizni surishtirib qoldi

c) O'qituvchi yana intizom haqida gapirib o'tdi.

d) Majnuntol kokillari yo'lni to'sib turardi.

Ot soʻz turkumi. Ot soʻz turkumi lugʻaviy maʼno guruhlari

23-mashq. 1-topshiriq. Matndan atoqli otlarni toping, ularning yozilishiga alohida eʼtibor bering.

Yetti pirlardan biri

(Xoja Mahmud Anjir Fagʻnaviy)

Xoja Mahmud Anjir Fagʻnaviy – Vobkent tumaniga qarashli Anjir Fagʻni qishlogʻida tugʻilib, shu yerda vafot qilganlar. Bu qishloqning hozirgi nomi Anjirbogʻdir. Xoja Mahmud Anjir Fagʻnaviy ilmi qol va ilmi holni Hazrat Xoja Orif Revgariydan oʻrgangan. Xoja Mahmud Anjir Fagʻnaviy qabrlari ustida yangi maqbara, maqbara yonida hovuz va jome masjidi qurildi. Ushbu joy obod ziyoratgohga aylangan. Bu zoti sharif XIII asrda yashab oʻtganlar. Manbalarda yozilishicha, Olloh taolo Xoja Mahmudga koʻplab karomatlarni ato etgan ekan. Ul zoti sharif zarurat boʻlganda ulkan qush shakliga kirib ucharkanlar va kerakli manzilga bir zumda yetib borarkan. Xoja Mahmud Anjir Fagʻnaviy 128ʻ-yil vafot qiladilar va u kishini tugʻilgan qishloqlarida dafn qiladilar. Shoʻrolar zamonasida Xoja Mahmud ziyoratgohlari qarovsiz, xarob edi. Istiqlol sharofatidan yurtimizdagi boshqa ziyoratgohlar qatorida Hazrat Mahmud Fagʻnaviy majmualari ham obod etildi. Bu yerda yangi darvozaxona, maqbara, jome masjid, quduq, hovuz, katta bogʻ barpo qilingan.

2-topshiriq. Oʻrin va payt maʼnosini ifodalovchi otlarni guruhlang.

3-topshiriq. Oʻzingiz bilgan boshqa ziyoratgoh joylar haqida soʻzlang.

24-mashq.1-topshiriq. Berilgan shaxs tavsifi nomlarini LMGga ajratib, jadvalga joylashtiring.

Shaharlik, opa, dehqon, xasis, jinni, dallol, o'smir, qari, qishloqi, ishchi, chol, bukri, dovdir, kambag'al, o'spirin, suvchi, buvi, egachi, ziqna, ezma, novcha, pakana, singil, ona, toshkentlik, mirob, boy.

Shaxsni yosh jihatdan tavsiflovchi LMG	Shaxsni qarindoshlik jihatdan tavsiflovchi LMG	Shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG	Shaxsni istiqomat jihatdan tavsiflovchi LMG	Shaxsni tashqi belgilari jihatdan tavsiflovchi LMG	Shaxsni ruhiy holati jihatdan tavsiflovchi LMG	Shaxsni ijtimoiy jihatdan tavsiflovchi LMG

2-topshiriq. Guruhlagan shaxs tavsifi nomlarini graduonimik munosabat asosida joylashtiring.

25-mashq. Otlarni quyidagi nomlar bildirishiga ko'ra guruhlariga bo'lib yozing.

1. Shaxs nomlari
2. Hayvonot nomlari
3. Narsa-buyum nomlari
4. O'simlik nomlari

Ot derivatsiyasi

26-mashq. 1-topshiriq. Matnda mavjud otlarni asos va qo'shimchalarga ajrating.

Hunar

Odamning barakali va badavlat bo'lishi uchun kasb-u hunardan qimmatroq mato yo'q va ulug'lik hamda saodat osmoni uchun esa qobiliyatdan yorqinroq yulduz yo'qdir. Hunar suvi bilan sug'orilmagan kishi go'yoki meva va soyasi yo'q quruq daraxtga o'xshaydi. Yoki hid va rangdan xoli gulga monanddir. Darhaqiqat, bu firdavsmonand gulshanning rayhonlari hididan dimog'ini muattar qilgan kishi xilma-xil kamyob lazvatli ne'matlardan bahramand bo'ladi. Bu ne'matning yoqimli mayidan bir jur'at otmagan kishi doimo baxtsizlik va ojizlik bilan og'rib, xumor bo'lib yuradi. Ko'p azob va uqubatlari yukini yelkasida ko'tarib yurishga majbur bo'ladi. Bilim va haqiqat bog'ining bog'bonlari kasb-u hunarsiz kishilarni jamiyatning razil va pastkash kishilari, deb hisoblaganlar. Kasb-u kamolsiz muhabbati hech bir dildan joy topmaydi va hech kim kasb-u hunarsiz kishiga yordam qo'lini cho'zmaydi.

Hunar bilan hayot naqlin egallaganlarga,

Saodat xazinasi kaliti muyassardir.

Barxurdor ibn Mahmud

2-topshiriq. Yasama otlarning hosil bo'lish usullariga ahamiyat qarating.

3-topshiriq. Yasama otlarni ma'no guruhiga ko'ra guruhlang.

27-mashq. Ot yasovchi qo'shimchalarni toping.

Bilim, ishonch, darsxona, talabgor, tortma, tilagim, boshga, etik, qalbingga, seni, sevinch, yuksak, sirdosh, mehnatkash,

quvonch, to'kinlik, chiqindi, bolaligim, guldon, boshlovchi, yog'ingarchilik, loyihalash, sezgi, ko'zguna, mashinadan.

28-mashq. Kamunum qo'shimchalarga diqqat qiling va ular ishtirokida ot so'z turkumiga oid so'zlarni hosil qiling.

– *k(-ik/-ak), -q(-iq, -uq, -oq), -qin/g'in, -(i)ndi, -mashoq, -ildiq.*

Namuna: ko'rik, og'riq, qaviq, buyruq

1-topshiriq. Kamunum qo'shimchalar qatorini davom ettiring, har bir qo'shimcha bilan yasalgan otlarni yozing.

2-topshiriq. Yozgan qo'shimchalaringizdan qaysilari omonimlik xususiyatiga ega? Fikringizni dalillar bilan isbotlang.

Namuna: -qin/-g'in: yong'in(ot) – so'lg'in (sifat)

29-mashq. Quyidagi juft otlarga e'tibor bering va topshiriqlar ketma-ketligini bajaring.

1-topshiriq. So'zlarni tarkibiga ko'ra 3 guruhga ajrating:

I. Har ikki qismi mustaqil holda ham ishlatiladigan juft otlar.

II. Qismlaridan biri mustaqil holda ishlatilmaydigan juft otlar.

III. Har ikki qismi ham mustaqil ishlatilmaydigan juft otlar.

2-topshiriq. Shakl va ma'no munosabatiga ko'ra 3 guruhga ajrating: qismlari o'zaro sinonim, qismlari o'zaro antonim, qismlarining ma'nosi yaqin.

shikast-rext, izzat-hurmat, kayf-safo, makr-hiyla, nasl-nasab, pand-o'git, izzat-hurmat, kayf-safo, makr-hiyla, nasl-nasab, pand-o'git, ikir-chikir, bozor-o'char, bola-baqra, qo'ni-qo'shni, latta-putta, yig'i-sig'i, maza-matra, mehmon-izmon, irim-sirim, lash-lush, qalang'i-qasang'i, mirqinboy-shirqinboy, ya'juj-ma'juj,

dev-pari, sovg'a-salom, o'q-dori, qovoq-tumshuq, hisob-kitob, hol-jon, qo'y-qo'zi, azob-uqubat, aysh-ishrat, dori-darmon, baxt-saodat, zeb-ziynat, adi-badi, ashqol-dashqol, nasl-nasab, pand-o'git.

Otning tasniflovchi grammatik kategoriyalari

30-mashq. Ko'chiring. So'zlardagi ko'plik, egalik qo'shimchalarining qo'shilishiga e'tibor bering. Ularning o'rin almashishidagi ma'noviy –uslubiy xususiyatlarini tushuntiring.

Farzandim-farzandimiz, boshim-boshlarim, iztiroblar-iztirobimiz, kuyov-kuyovingiz, yuzlarim-yuzim, do'stim-do'stginam-do'stlarim, uyimizda-uylarimizda, hayajonimiz-hayajonlarim, xirmon-xirmonlarim-xirmonimiz, dilim-dillaringiz-dilimiz, ko'zdan ayrildi-ko'zidan ayrildi.

31-mashq. 1-topshiriq. Matnni o'qing. Faqat birlikda qo'llanuvchi otlarni aniqlang. So'ng ularga –lar ko'plik qo'shimchasini qo'shib ko'ring. Qanday hodisa kuzatilganini tushuntiring, lingvistik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

– Bolaginam, muzlab qolay debsan-ku! - dedi u tinmay. Issiq ko'rpaga o'rab qaynoq-qaynoq choy ichirishdi. Har choy ho'plaganimda jo'rttaga bir inqillab qo'yaman. Ichimga issiq kirishi bilan huzur qilib uxlab qolibman. Ertasiga birinchi qilgan ishimga qishlog'imizda yashaydigan Soraxon folbinning ishlarini tekshirib ko'rish bo'ldi. Meni biron kishi komissiya qilib tayinlagani yo'q-ku, lekin shunchaki o'zim qiziqib qoldim-da. O'qituvchimiz unga ishonmanglar, hammasi yolg'on deydi. Yolg'on bo'lsa, nega xolamning shuhrati shunchalik yoyilib ketadi. Rom ochirib, dardiga davo so'rash uchun odam shunaqangi ko'p keladiki, shunaqangi ko'p keladiki,

qishlog‘imizdagi medpunkt uning oldida ip esholmaydi. Undan keyin, kelganlar quruq kelishmaydi. Birovi shoxdor qo‘y, birovi sariq echki, birovi qog‘ozga o‘ralgan pul, bir xillari katta tog‘orada to‘rt quloqli somsa tashlab ketishadi. Men bilan o‘qiydigan o‘g‘li Mirobiddinxo‘janing kerilganini aytmaysizmi, bir o‘zining ikkita velosipedi bor. Tunov kun, bittasini minib biroz sayohat qilgan edim, qosqonini egib qo‘ygan ekanman, aka-uka meni tutib olib rosa do‘pposlashdi.

Odamlar:

– Soraxon folbin to‘ppa-to‘g‘ri xudo bilan gaplashadi! - deyishadi. Mirobiddinxo‘ja bo‘lsa maqtanib:

– Bizning uydan xudoning ovozi eshitilib turadi! - deydi.

Ishqilib, ana shu narsalarni tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ldim-u, ertalab nonushtadan so‘ng to‘ppa-to‘g‘ri folbin xolamning uyiga qarab yo‘l oldim. Hovlisida yettita xotin, beshta chol, uchta bola o‘tirishibdi. Hammasi ham kasal bo‘lsa kerak, rangi oftob urgan xashakdek sap-sariq. Qalpoqni kiyib sekin ichkari kirdim. Folbin xolam qorong‘i uyda o‘tirib olib rom ochyapti, qarshisida bola qo‘ltiqlagan mening oyimga o‘xshagan cho‘ziq yuzli bir ayol o‘tiribdi.

– O‘g‘lingni sariq jin uribdi, qizim, - dedi folbin xolam.(Xudoyberdi To‘xtaboyev)

2-topshiriq. Otlarda son paradigmasi. Uning UGMsi va nutqiy voqelanishi haqida ma‘lumot bering.

32-mashq. 1-topshiriq. Shaxsiy munosabat shakllari ishtirok etgan matn yozing.

2-topshiriq. Shaxsiy munosabat shakllari ifodalagan ma'nolarni tahlil qiling.

3-topshiriq. Soddalashuv hodisasiga uchragan shaxsiy munosabat shakllariga misollar keltiring.

Ot so'z turkumida aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi

33-mashq. 1-topshiriq. Matnni o'qing. Kelishik qo'shimchalari-ning ishlatilishiga e'tibor bering.

Zulfiya XX asr o'zbek she'riyatining yirik vakillaridan biridir. U o'zining teran falsafiy, hassos, fojiaiy va hayotbaxsh realistik ijodi bilan hozirgi zamon o'zbek she'riyatida yangi sahifa ochdi.

Isroil Muslimov qizi Zulfiya 1915-yil 1-martda Toshkentning O'qchi nahallasida tig'ildi. Hovli mo'jazgina bo'lsa-da, unda bir-biridan chiroyli, muattar gullar o'stirilardi. Oila a'zolari she'rxonlikni, musiqani juda yaxshi ko'rardi. Zulfiya oilaning kenjasi edi. Uning bir-biridan ko'rkam, bir-biridan aqlli to'rt akasi bor edi. Ularning bari keyinchalik mas'ul lavozimlarda ishladilar, qatag'on-qirg'in yillarining achchiq zahri va shafqatsiz qahriga duchor bo'ldilar....

Oiladagi tinch, fayzli, shirin hayotni vujudga keltirishga onaning xizmati juda katta edi. Ona shoirtabiat, ko'p narsani bilguvchi, farzandlarini katta dunyo sari dadil yetaklagan zehnli ayol edi. "Agar iste'dodim bor bo'lgan bo'lsa, uning chashmasi – onam. Agar adabiyot ahliga bir kaft don yanglig' she'riy hosil tutgan bo'lsam, uning urug'uni qalbinga avval onam sochganlar",- degan edi Zulfiya. Shoiraning butun ijodi davomida onani, ayolni ulug'lovchi otashin she'rlar yozishi bejiz

emasdi. Uni doim „qattiq minnatdorchilik tuyg‘usi”, “uzilmagan qarz hissini to‘kib solish ehtiyoji” band etadi va shu mavzuning yangi-yangi jihatlarini ochadi. Otasi esa temirchi edi. “Ustaxona uyimizning yonginasida bo‘lganligi uchun ham, - deydi Zulfiya, - men uning laxch cho‘qqa aylangan po‘lat eritmalarini turli shaklga solishini, o‘sha cho‘g‘ po‘latdan turli asboblarni yasashini hayrat bilan kuzatishni yaxshi ko‘rardim. Olov va mehnat mahorat bilan birikkanda inson ko‘p ishlarning uddasidan chiqishi mumkinligini ham men bolalikdan anglab yetdim. Keyinchalik charchagan yoki dilga tanglik cho‘kkan, loqaydlik hukmron bo‘lgan daqiqalarda otamning salobatli aziz qiyofasini, bolg‘asining bir maromda ko‘tarilib tushishini eslashning o‘zi menga ajoyib tarzda yangi kuch-quvvat bag‘ishlardir.”

Zulfiya boshlang‘ich maktabni bitirgach, xotin-qizlar pedagogika bilim yurtida tahsil oldi(1931-1934). Shu yerda she‘r mashq qila boshlaydi. Bilim yurti qoshida adabiy to‘garak tashkil etilgan edi. Unga shoir Shukur Sa‘dulla rahbar edi. To‘garakga G‘afur G‘ulom, Uyg‘un kabi ko‘zga ko‘ringan shoirlar bilan uchrashuvlar uyushtirilardi. Shoir o‘z ustozini „avvalo, „davrning, hayotning o‘zi deb” hisoblardi. O‘sha davrning shuhratli shoirlari, turli-tuman kitoblar shoiraga ijod sirlarini ishlashda ko‘mak berganiga shak-shubha yo‘q, albatta. Ilk she‘ri bo‘lmish “Qizil durra”ning dunyoga kelishiga paranjini tashlab zavod-fabrikalarda boshlariga qizil durra o‘rab ishlay boshlagan ayollar hayoti turtki bergani ham bejiz emas. Shoir hayot, turmush saboqlaridan ilhom oldi va 17 yoshidayoq “Hayot varaqlari”(1932) degan ilk to‘plamni chiqardi. Ammo u bunda dunyoga, voqealikka, insonga o‘z nuqtayi nazaridan qarash darajasiga ko‘tarilmagandi. Hamid Olimjon bilan

taqdirining bog‘lanishi (1935) shoira hayoti va ijodida ulkan burilish bo‘ldi.

2-topshiriq. Kelishik shakllarining o‘rniga ko‘makchilarni qo‘yib izohlang.

34-mashq. 1-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga kelishik qo‘shimchalaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Odamlar... Tangri hidoyat, tavba-tazarru yo‘li... boshlamasa, siyosat, mafkura, ma‘rifat bilan o‘zgartirish og‘ir bo‘lib qoldi. 2. “Mantiq ut-tayr” mutolaasi o‘zing... tanqidiy, shafqatsiz qarash..., bu besh kunlik dunyo bir puff... arzimasligi... anglash... o‘rgatadi. 3. Dunyo... o‘tgan buyuklar shaxsi... yaxshilab, sinchiklab o‘rganib: hammasi... ulug‘lik maqomi... ko‘targan kuch, asos – qalbiy jasorat, so‘ng iste‘dod, so‘ng omad degan xulosa... keldim. 4. Birov... hayoti... aralashma, o‘zing... hayoting... mosuvo bo‘lasan.

5. Bolalar ruhi... hayot degan dars,

Manmanlik urug‘i... joylasa.

Oshiqlar ko‘cha... ma‘shuqasi... emas,

Kim...dir qadamin poylasa.

2-topshiriq. Kelishik kategoriyasining mohiyatini tushuntiring.

35-mashq. Gaplarni o‘qing. Egalik qo‘shimchalarining ishlatilishiga e‘tibor bering hamda qaysi gap bo‘lagi bo‘lib kelayotganini izohlab bering.

1. Onam aytardi: “Tongda turib, yaxshi niyat qil, ijobati tez bo‘lur”. (O‘.Hosh.) 2. Har bir kishi, asosan, qo‘lidan keladigan va o‘ziga yarashadigan ishga urinishi zarur. (Arastu) 3. Kulish –

umrni uzaytirish demak. 4. Dilni vayron qiladigan yig'lashi meni azoblantirdi.

5. Hayot kitobimni bexos varaqlab,
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.
Tabassum o'rniida kuldim charaqlab,
Suyish kerak bo'lsa, telbacha suydim. (Zulfiya)

6. Kimni jazolashni, kimni kechirishni Xudoning bir o'zi biladi. (L.Tolstoy) 7. U ho'l o'tin vishillab yonayotgan o'choqqa tikildi. (P.Tursun)

36- mashq. 1-topshiriq. G'azaldan berilgan parchani ifodali o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi turkunga oidligini aniqlang.

*Biz istig'no eli, qichqirmag'on ma'vog'a bormasmiz,
Agar chandiki xirman aylasa, dunyog'a bormasmiz.*

*Agar labtashna qolsak filmasal sahroyi olamda,
Malolat zohir etsa mavj uran daryog'a bormasmiz.*

*Umid etgonimiz aksar saodat bo'tayi haqdin,
Agarchi mis erurmiz, qimmati tillog'a bormasmiz.*

*Hamisha lof urarmiz xalq aro Farg'ona mulkida,
Bag'oyat tab'imiz ozoda deb, har jog'a bormasmiz.*

*Havo loyig'a botg'an moumanlik do'sti xudbinkim,
O'shandog' kamzarofat maskani a'dog'a
bormasmiz... (Furqat)*

2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nolarini izohlashga harakat qiling.

37- mashq. "Til – ma'naviyat ko'zgusi" mavzusida matn tayyorlang. Matnda ot-kesimli gap qurilishlari ishtirok etsin. Kesimlik ko'rsatkichlarining yig'iq, yoyiq, analitik voqeanishlarini izohlang.

Keys topshiriq

I.Nima qildim/dunyoni/men

Yorug'/ o'zing/jahonim

O'zim/o'zim/xoqon/sulton

Taxt-u Sulaymonim/sen

Deymi/yolg'izim/yagonam

Koshonam/topingan/deymi

Ulug'lardan/uzing/meni

Vatanim/ulug'imsan

Keys topshirig'i:

1.Quyidagi so'zlarning o'rnini shunday o'zgartiringki, natijada hammaga ma'lum bo'lgan xalq shoirining mashhur she'ri hosil bo'lsin.

2.Ushbu she'riy parchadan narsa otlari va shaxs otlarini toping.

II. Quyida berilgan diagrammadagi so'zlardan foydalanib shunday gaplar tuzingki, natijada paremiologiya bo'limida o'rganiladigan birliklar hosil bo'lsin.

uya/ko'rmog/qush/qilmoq

minnat/mehnat/qil/qilma

o'z/yurt/o'zga/shoh/gado

xizmat/himmat/yurt/oliy

Ot so'z turkumi bo'yicha tahlil namunasi

... faqat ko'ngil ko'zigina ochiq, eng asosiy narsani ko'z bilan ko'rolmaysan. (A.S.Ekzyuperi "Kichkina shahzoda")

1. So'rog'i: nima?;
2. Bir turdagi predmetdan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra: turdosh ot;
3. Sanalish-sanalmasligiga ko'ra: sanalmaydigan ot;
4. Bevosita kuzatish mumkin bo'lgan yoki bo'lmagan predmet-hodisalar nomini ifodalashiga ko'ra: mavhum ot;
5. Birlik shaklda bir turdagi predmetlarning o'zini yoki predmet to'dasini bildirishiga ko'ra: yakka ot;
6. So'zshakl turiga ko'ra: nol shaklli;
7. Tuzilishiga ko'ra: sodda tub;
8. Son kategoriyasiga ko'ra: birlikda;
9. Qaysi kelishik shakli bilan ifodalanishiga ko'ra: bosh kelishikda.

Test topshiriqlari

1. *Iste'dodli shoirlar: Suvon Soqiy, Ismoil To'xtamishev, Rustam Musurmon, Sharofat Ashurova, Rustam Ochil va boshqa ijodkorlar yangi-yangi she'rlari bilan kitobxonlar qalbiga kirib bormoqdalar.*

Ushbu gapda nechta shaxs oti ishtirok etgan hamda ularning nechtasi yasama hisoblanadi?

- A) 5ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 5tasi yasama
- B) 3ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 2tasi yasama
- C) 5ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 2tasi yasama
- D) 8ta shaxs oti ishtirok etgan, ulardan 7tasi yasama

2. **Qaysi qatordagi hukm noto'g'ri?**

- A) ot sifat bilan birika oladi
- B) ot son bilan birika oladi
- C) ot olmosh bilan birika olmaydi
- D) ot fe'l bilan birika oladi

3. **Ot antonimlarni toping.**

- A) olov, suv, o't, muz
- B) xursandchilik, sevinch, quvonch, shodlik
- C) g'alaba, mag'lubiyat, foyda, zarar
- D) Ava C javoblar to'g'ri

4. **Qaysi gapda kelishiklar belgisiz qo'llangan?**

- A) U chollar suhbatini eshitmas edi.
- B) Bunda bulbul kitob o'qiydi, bunda qurtlar ipak to'qiydi.
- C) Bunda ari ketiradi bol, bunda qushlar topadi iqbol.
- D) A, B va C

5. **Qanday holatlarda tushum kelishigi belgili qo'llanadi?**

- A) atoqli ot bilan ifodalansa
- B) egalik affiksini olgan bo'lsa
- C) otning sifatlovchisi bo'lsa
- D) A, B, C

6.Yer haydasang , kuz hayda. Maqolda qaysi kelishik qo‘shimchalari belgisiz qo‘llangan?

A)o‘rin-payt, jo‘nalish

B)tushum, o‘rin-payt

C)tushum kelishigi

D)o‘rin-payt kelishigi

7.Qaysi kelishik qo‘shimchalari badiiy uslubda qisqargan holda qo‘llanilmaydi?

A)qaratqich va tushum

B) tushum, jo‘nalish va chiqish

C)chiqish, o‘rin-payt va jo‘nalish

D)chiqish va o‘rin-payt

8.Kelishik shaklidagi otlar qaysi so‘z turkumlaridagi so‘zlar bilan grammatik bog‘lanadi?

A)ot, fe‘l, sifat, ravish

B)ot, fe‘l, sifat

C)ot va fe‘l

D)barcha mustaqil so‘zlar bilan

Sifat soʻz turkumi. Sifat soʻz turkumi lugʻaviy maʼno gurublari

38-mashq. Quyida berilgan sifatlarni LMGlari asosida tasniflab, jadvalga joylashtiring.

Badjahl, goʻzal, boy, oq, xushboʻy, ichki, zangor, devoriy, dilkash, hoʻl, kuzgi, chillaki, nordon, yoqimtoy, yaxshi, ertapishar, pishiq, pushti, qoʻlansa, loqayd, dumaloq, taxir, koʻhna, toza, xursand, shod, choʻloq, bardam, maʼyus, sokin, juldur, shoʻr, keng, ogʻir, tor, qishloqi.

<i>Xususiyyat bildiruvchi sifatlar</i>	<i>Holat bildiruvchi sifatlar</i>	<i>Shakl bildiruvchi sifatlar</i>	<i>Rang-tus bildiruvchi sifatlar</i>	<i>Maza-taʼm bildiruvchi sifat</i>	<i>Hid bildiruvchi sifat</i>	<i>Oʻlchov bildiruvchi sifat</i>	<i>Oʻrin bildiruvchi sifat</i>	<i>Payt bildiruvchi sifat</i>

39-mashq. 1-topshiriq. Matnni oʻqing. Sifat soʻz turkumiga oid soʻzlarni toping.

Shaxs maʼnaviyatining botiniy alomatlari

Shaxs maʼnaviyatining botiniy alomatlari qalb tozaligi, halollik, samimiylilik, mehr-shafqat, hayo, oqkoʻngillik, adolatparvarlik, iymon, diyonat, taqvo, or-nomus kabi axloqiy tushunchalarni qamrab oladi. Quyida ularning har biriga qisqacha toʻxtalib oʻtamiz.

Qalb tozaligi. Qalb yurak, dil ma'nolarini bildiradi. Kishining ruhiy yoki ma'naviy dunyosi, ichki his-tuyg'ulari markazi ramzidir.

Halollik. Vijdon bilan insof yuzasidan ish tutish, to'g'rilik, soflik, vafodorlik. Halollik har qanday martabani bezaydi. Halollik, to'g'rilik - katta baxt. O'z halolligini namoyish etish ko'proq xushxulq odamga yarashadi. Harom, haromxo'rlik buning teskarisidir.

Samimiylik. Sidqidillik, chin qalbdan, yurakdan, dilning peshonasiga yoyilgan belgidir (D. Didro). Samimiylik - og'ir va juda nozik masala, u aql va chuqur ma'naviy odobni talab etadi (V.V. Veresayev). Samimiylik sofdillikdir. Bu fazilat kamdan kam odamda bor.

Mehr-shafqat. Mehr insonning o'z tug'ishganlariga, yaqin kishilarga va umuman, odamga bo'lgan samimiy muhabbati, shafqati, rahmdilligi; shafqat - biror kimsaga achinish, ayash, rahmdillik, mehribonlik kabi ma'nolarni bildiradi. Mehr-muhabbatli, shafqatli ma'nolaridan tashqari, ba'zan egizak, qo'shaloq holda ishlatilib, yetim-yesirlarga, nogironlar, qarovsiz qolgan qariyalar, g'ariblarga, muhtojlarga nisbatan moddiy va ma'naviy yordam berishdir.

2-topshiriq. Matnda uchragan sifat turkumga mansub birliklarni ma'naviy jihatdan guruhlang.

3-topshiriq. O'ylab ko'ring-chi, shaxs ma'naviyatining yana qanaqa alomatlari bo'lishi mumkin?

40-mashq. Matnni o'qing. Sifatlarni aniqlang. Har bir sifatni darajalab chiqing.

“...Bolam... Muzaffarim yigit bo'p qopti. Mo'ylovi sabza uribdi. Ovozi do'rillab qolibdi... Vijdonsiz cho'loq! Aqalli shu

kuni yasantirib qo'ysa o'ladimi! Anavi shallaqi Robiya jillaqursa tug'ilgan kunida bolaga yirtiq shim kiygizishga uyalmaydimi? Zolimmi, ablahmi, otasi Nasibaga har yili tug'ilgan kuni bosh-oyoq sarpo qiladi-ku! O'g'lim bo'lsa pochasi ilma-teshik shim kiyib yuribdi. Tug'ilgan kunni qayoqdan biladi qishloqi Robiya! Bolaning ko'nglini olish xayoliga keladimi to'pori cho'loqning! Yaxshiyam cho'ntagiga pul solib qo'yganim. Bilib qo'ylaring! Bolang ko'nglini senlar ololmasang, xursand qiladigan onasi bor!"

41-mashq. Matn parchalarini o'qing. Belgi-xususiyat bildiruvchi so'zlarni ajratib ko'chiring.

1. "...Shunday qilib, til juda katta ma'rifiy ahamiyatga ega ekan. Ammo tilning ahamiyati bu bilan tugamaydi. Uning juda ulug' badiiy ahamiyati ham bor. Tilning badiiy imkoniyati cheksiz. Til imkoniyatining cheksizligi va ahamiyatining nihoyatda ulug'ligi uning ham moddiy, ham ma'naviy olamni qamrab olganligidadir". (A.Rustamov) 2. "...Cho'lpon o'rta bo'y, to'lachadan kelgan, doimo yumaloq gardishli oddiy ko'zoynak taqib yuradigan odam edi. U juda serandisha, odamlarga bexosdan ozor berib qo'yishdan cho'chiydigan, ko'ngilchan va chinakam shoirona tabiatga ega edi. Arzimagan narsaga xunobi chiqib, fig'oni falakka yetar, asabiylashar, yana arzimagan sabab bilan kayfiyati joyiga kelib qolardi". (M.Burxonov)

42-mashq. 1-topshiriq. Quyidagi holat bildiruvchi sifatlarga diqqat qiling. Har bir qatorida noto'g'ri ko'rsatilgan so'zni aniqlang va uni mos qatorga joylashtiring.

1) tabiiy holat bildiruvchi sifat: *go'zal, mo'min, o'ktam, quruq, bukri*;

2) jismoniy holat bildiruvchi sifat: *bezovta, bardam, baquvvat, tetik, yosh*;

3) ruhiy holat bildiruvchi sifat: *xafa, g'amgin, ma'yus, jim, xursand, shod*;

4) iqtisodiy holat bildiruvchi sifat: *boy, badavlat, kir, kambag'al, nochor*;

5) harorat holatini bildiruvchi sifat: *iliq, chala, salqin, sovuq, issiq*;

6) tozalik holatini bildiruvchi sifat: *toza, ozoda, chiroyli, musaffo, isqirt*;

7) eskilik, yangilik holatini bildiruvchi sifat: *yangi, eski, shalabbo, ko'hna, juldur*;

8) ho'l-quruqlik holatini bildiruvchi sifat: *ho'l, qaynoq, nam, namxush*;

9) tinch va notinch holatni bildiruvchi sifat: *tinch, barvasta, jimjit, sokin, osuda, osoyishta*;

10) yetilganlik holatini bildiruvchi sifat: *xom, pishiq, g'o'r, puxta, oqsuyak*.

2-topshiriq. Har bir qatorni mustaqil to'ldirishga harakat qiling.

43-mashq. O'zingiz yoqtirgan badiiy qahramon qiyofasini va tabiatini tasvirlab matn tuzing. Sifat so'z turkumiga oid so'zlarni ajratib ko'rsating.

44-mashq. Quyidagi sifatlarning ma'no nozikliklarini farqlang.

Bardam

1. Ular dushmanlar bilan kurashda o'zlarini **bardam** jangchilar ekanliklarini ko'rsatdilar.

2. Ota zalvorli tayog'ini qorga niqtab bosib, **bardam** qadam tashladi.

Baquvvat

1. Nozik va ingichka Elmurod **baquvvat** va yo'g'on Meli polvonning belbog'iga qo'lini chirmashtirib oldi (P. Tursun).

2. Kitelining ko'krak cho'nchagidan tarog'ini olib, Qunduzoy **baquvvat** sochini taradi (S. Anorboyev).

3. G'o'zaning hosildor shoxlari **baquvvat**, yetuk edi (Oybek).

4. **Baquvvat** motor guvullab o't oldi.

5. Tangriqul hoji **baquvvat** xo'jalik edi. G'ulom aka yel kelsa yiqiladigan, bequvvat xo'jalik edi (A. Qahhor).

Sifat derivatsiyasi

45-mashq. Gaplarni o'qing. Sifatlarni aniqlang, yasama sifatlarning yasalish usulini tushuntiring.

1. Turli yuviqsiz kimsalarga yuvin deb buyurilsa, toza bo'lur, ammo johil qancha yuvinmasin pok bo'lmaydi. (A. Yugnakiy) 2. Tor ko'chada, qo'shnimizning eski, shaloq eshigi oldida mening chol bobom o'z o'rtog'i – uzun soqolli, yirik jussali, kar quloq mo'ysafid bilan nimalar to'g'risidadir ezmalanib so'zlashadi.

3. Bobom oriq, kichkina gavdasini devorga suyab, cho'qqaygan; hassasini tizzalari orasiga qadagan. 4. U epchil, har narsaga 'aqli yugurik, keksalar kabi gapdon. 5. Ular Mashrabdan va ba'zi fors shoirlardan chuqur so'fiyona diniy g'azallar o'qib, bozorni kezdilar. (Oybek) 6. E. Frommning tush

haqidagi falsafiy esselari haqiqatning go'zal, najib suratlaridir. 7. Kiprikларingda hurkak turgan sohir bir tuyg'u bor. (I.G'aniyev)

46-mashq. 1-topshiriq. Affiksatsiya usulida quyidagi qoliplar asosida sifat yasang.

ot + -li = gavdali, kuchli...

ot +- dor=

ser + ot =

be + ot =

fe'l + -choq/chiq/chak =

fe'l +-mon =

fe'l/taqlid + -(a) ki(qi) =

sifat + -namo =

2-topshiriq. Berilgan qoliplar qatorini davom ettiring. Har bir yasalgan qolipga misol keltiring.

Namuna: ot + -parvar = asosdan anglashilgan narsani sevishni bildiruvchi sifat (*xalqparvar, insonparvar, vatanparvar*).

3-topshiriq. Ikki guruhga bo'lining. Hosil qilingan sifatlarni ikki guruhga ajrating.

1 guruh. Asliy sifatlار.

• sergo'sht, kuchli ..

2 guruh. So'z sifatlari.

• do'ppili, devoriy...

47-mashq. 1-topshiriq. So'zlarni turkumlarga ajrating. Sifat so'z turkumlariga e'tibor bering.

Qisqartma, abgor qilmoq, do'ppili, ado qilmoq, unutulchan, ayyuhannos solmoq, javob bermoq, halal bermoq, kuchli, bedin,

qo'nim topmoq, tomchi, suyunchi, majnunnamo, go'zal, tinch, oq, ol, ninachi, kamsuxan, janjalkash, mahsido'z, savagich, jonkuyar, ko'ksulton, kasalmand, iskabtopar, nasldor, imloviy, gapdon, qaram, sog'lom, savacho'p, tinchliksevar, kamgap, kamqon, cho'rtkesar, yebto'yimas, o'zboshimcha, tilyog'lama, qirqyamoq.

2-topshiriq. Sifat turkumiga mansub so'zlarni tub va yasamaga ajrating. Namuna: janjalkash = ot+ kash, yasama; oq= tub, rang-tus sifati.

3-topshiriq. Yasama sifatlarning qo'shimchalarini ajratib yozing. Guruhlarga bo'lingan holda 1 daqiqa davomida har bir qo'shimchaga so'zlar yozing.

4-topshiriq. Qo'shma sifatlarni aniqlang va ularning tarkibini aniqlang, xuddi shunday tarkibli sifatlarni hosil qiling.

Namuna: yebto'yimas – fe'l+ fe'l: iskabtopar...

48-mashq. 1-topshiriq. "Mening kasbim" mavzusida matn yozishga tayyorlaning. Unda qo'shma sifatlarni ishtirok etsin.

2-topshiriq. Matnda qo'llangan sifatlarni asliy va nisbiy sifatlarga ajrating.

49-mashq. She'ni ifodali o'qing.

Ajratolmay asl hayotni

Sarson bo'ldi bechora yurak.

Sirli tuynuk bo'lib tuyuldi

Osmon uzra oy solgan yo'lak.

Men bir yoʻlni qidirdim uzoq,
Yulduzlar jim kuydirdi koʻzim.
Yetib keldim,
Va koʻrdim nogoh-
ESHIK edim oʻzimga oʻzim!

(Zebo Mirzo)

1-topshiriq. Sheʼrdagi yasama sifatlarni toping va qaysi usulda yasalganligiga koʻra ajrating.

2-topshiriq. Sheʼrdagi sifat asosli yasama soʻzlarni topib, soʻz turkumlariga koʻra tasniflang.

3-topshiriq. Yasama soʻzlar tarkibidagi yasovchi morfemalar omonimligidan foydalanib yangi sifatlar yasang va ularning maʼno turlarini koʻrsating.

4-topshiriq. Yasama sifatlarning gapdagi vazifasini aniqlang.

50-mashq. Matndan sifat soʻz turkumlarini ajrating va grammatik xususiyatlarini izohlang.

Hovlining yarmiga yaqin joyga tangadek oftob tushirmaydigan qari tut barglari sargʻaya boshlagan... Shu tut tagida oppoq bir it supurgi ustida uxlab yotibdi. Kichkinagina belida belbogʻdek ikkita —biri qora, biri jigarrang chizigʻi bor. Xuddi kimdir ataylab boʻyab qoʻyanga oʻxshab koʻrinadi. Tumshugʻi bilan ikki koʻzi qop-qora. Bir koʻzining tepasida toʻmtoq qoshi ham bor. (*Said Ahmad*)

Sifatning tasniflovchi grammatik kategoriyalari

51-mashq. Matnni o'qing. Sifatlarda daraja hosil qiluvchi shakllar qo'llanishiga ahamiyat qarating. Sifat so'z turkumining uslubiy qo'llanishi xususida xulosa chiqaring.

Xalq ma'naviyati

Mustaqillik tufayli erishgan eng katta va eng muhim yutuqlarimizdan biri fan bilan dinni, ilimiy dunyoqarash bilan diniy dunyoqarashni bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar sifatida baholashdan xalos bo'lganimizdir. Bunda umumjahon, jumladan, Sharq falsafasining tub mohiyati ilm-fan erishgan yutuqlar bilan diniy tushunchalarni uyg'unlashtirish, ularning bog'liqligini ochib berishga qaratiladi. Islom falsafasida insonga jismoniy va ruhiy borliq deb qaralib, uning o'tkinchi va mangu hayoti mavjudligi ta'kidlandi. Insonning inson sifatida mavjudligini ta'minlovchi uning tanasi emas, balki ruhidir. O'lim tanani yashashdan to'xtatadi, uni jasadga aylantiradi, shaxsiyatidan ajratadi. Inson tanasi foniy, o'tkinchi, nihoyatda o'zgaruvchi, ruh esa boqiy, o'zgarmasdir.

Ma'naviyati juda qashshoq bo'lgan odamdan biror narsa kutish also mumkin emas. Chunki u yaxshilik va ezgulik haqida o'ylamaydi. Atrofiga hatto ota-onasi, qarindosh-urug'lari taqdiriga befarq, o'ta loqayd munosabatda bo'ladi. Bunga juda ko'plab misol keltirish mumkin. Yuksak ma'naviyatli xalq, inson bugungi kun va kelajak haqida fikr yuritadi, qayg'uradi. Zotan, mustaqillik yosh mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak barkamol insonlar zarur.

Ruhning poklanishi qurilayotgan huquqiy demokratik davlatimizning ajralmas ma'naviy-axloqiy tamoyili hisoblanadi.

Xuddi shu g'oya islom dini va tasavvuf ilmida ham ilgari surilgan.

Ma'naviyat milliy xususiyatga ega ekanini hech qachon unutmaslik kerak. U milliy urf-odatlar, tarbiya an'analari, axloq-odob normalari, qadriyatlar, din, e'tiqod, madaniy-ma'rifiy, ijtimoiy, didaktik, falsafiy-pedagogik qarashlar, ruhiy-psixologik jarayonlar va shu kabilar majmuasidan iboratdir.

52-mashq. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar lug'atidan foydalanib sifat darajalanishlariga misollar toping va ma'no graduonimik munosabatini izohlang.

53-mashq. Gaplarni o'qing va sifatga oid so'zlarni ajratib yozing. Topshiriqlar ketma-ketligini bajaring.

1. Samimiy do'stlari bo'lmagan odam haqiqatdan ham yolg'izdir. (F. Bekon) 2. Ufq qizg'ish tusga kirib, osmon yorishardi. (SH. Rash) 3. Yaxshi fikrlar ham eng yaxshilariga joy bo'shatib bermog'i lozim. (Shekspir) 4. Torga tor dunyo, kengga keng dunyo. (Maqol) 5. Bir o'tim bor ajabgina, Dumlari bor gajakkina, Hali kelsa ko'rasiz, Kula-kula o'lasiz. (Xalq topishmog'i)

Topshiriqlar:

1. Sifatlarning lug'aviy ma'no guruhlarini aniqlang.
2. Oddiy, qiyosiy, orttirma darajadagi va ozaytirma sifatlarini ajrating.
3. Sifatlarning yasalishiga turlarini ajrating.
4. Sifatlarning tuzilish turlarini ajrating.
5. Gaplardagi sifatlarning sintaktik vazifasini aniqlang.

6. Gaplarda qo‘llangan sifatlarning ma‘nodosh, shakldosh, vazifadosh va zidlari qatorini tuzing.

54-mashq. Ikki guruhga bo‘lining. Har bir guruh fonetik usul bilan orttirma daraja sifatlari hosil qilsin. Eng ko‘p topgan guruh g‘oliblikni qo‘lga kiritadi.

Sifat so‘z turkumida aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi

55-mashq. She‘rni ifodali o‘qing.

Azizimsan,

Baxtiyorimsan,

Ishonganim-vafodorimsan.

Yolg‘izimsan...Umrin o‘lchovli

Qarg‘a esa mingga kiradi.

Bilib yurar,

Ko‘rib turadi.

Quzg‘un-ajal topar bexato.

Jondan ortiq ko‘raman lekin

Seni bog‘lab qo‘ygan yo‘q, ota...

Qarg‘a esa mingga kiradi.

(M.Yusuf)

1-topshiriq. She‘rdagi shakl yasovchi morfemalarni tasniflang.

2-topshiriq. Bir so‘z turkumining shakl yasovchi morfemalari boshqa so‘z turkumida voqealangan o‘rinlarni topib izohlang.

3-topshiriq. She`rdagi shakl yasovchi morfemalar omonimligiga misollar toping.

Keys topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi ta`riflardan sifat va ravish so`z turkumiga mansublarini tanlab, doirachalar ichini to`ldiring (raqamlar ko`rinishida).

1. Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi so`z	6. Belgini bevosita va bilvosita ifodalash xususiyatiga ega
2. Jim, tinch, yaqin so`zlari	7. So`z o`zgartiruvchi, shakl yasovchi qo`shimchalar bilan birika olmaydi
3. Barqaror va turg'un belgi ifodalash xususiyatiga ega	8. Gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kela oladi
4. V.V.Vinogradov- ushbu turkum tadqiqotchisi	9. Ochin-to`qin, o`lda-jo`lda so`zlari
5. Daraja kategoriyasiga ega	10. Boshqa turkumdagi so`zlarni takrorlash orqali ushbu turkumda yangi so`z hosil qilish mumkin



2-topshiriq. Ko`p ta`rif to`plagan doirachadagi so`z turkumining derivatsiyasini sharhlang.

6. Gaplarda qo‘llangan sifatlarning ma‘nodosh, shakldosh, vazifadosh va zidlari qatorini tuzing.

54-mashq. Ikki guruhga bo‘lining. Har bir guruh fonetik usul bilan orttirma daraja sifatlari hosil qilsin. Eng ko‘p topgan guruh g‘oliblikni qo‘lga kiritadi.

Sifat so‘z turkumida aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi

55-mashq. She‘rni ifodali o‘qing.

Azizimsan,

Baxtiyorimsan,

Ishonganim-vafodorimsan.

Yolg‘izimsan...Umrim o‘lchovli

Qarg‘a esa mingga kiradi.

Bilib yurar,

Ko‘rib turadi.

Quzg‘un-ajal topar bexato.

Jondan ortiq ko‘raman lekin

Seni bog‘lab qo‘ygan yo‘q, ota...

Qarg‘a esa mingga kiradi.

(M. Yusuf)

1-topshiriq. She‘rdagi shakl yasovchi morfemalarni tasniflang.

2-topshiriq. Bir so‘z turkumining shakl yasovchi morfemalari boshqa so‘z turkumida voqealangan o‘rinlarni topib izohlang.

3-topshiriq. She`rdagi shakl yasovchi morfemalar omonimligiga misollar toping.

Keys topshiriq

1-topshiriq. Quyidagi ta`riflardan sifat va ravish so`z turkumiga mansublarini tanlab, doirachalar ichini to`ldiring (raqamlar ko`rinishida).

1. Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi so`z	6. Belgini bevosita va bilvosita ifodalash xususiyatiga ega
2. Jim, tinch, yaqin so`zlari	7. So`z o`zgartiruvchi, shakl yasovchi qo`shimchalar bilan birika olmaydi
3. Barqaror va turg`un belgi ifodalash xususiyatiga ega	8. Gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kela oladi
4. V.V.Vinogradov- ushbu turkum tadqiqotchisi	9. Ochin-to`qin, o`lda-jo`lda so`zlari
5. Daraja kategoriyasiga ega	10. Boshqa turkumdagi so`zlarni takrorlash orqali ushbu turkumda yangi so`z hosil qilish mumkin



2-topshiriq. Ko`p ta`rif to`plagan doirachadagi so`z turkumining derivatsiyasini sharhlang.

Keys topshiriq


1-topshiriq. Matnni davom ettiring va unga mos sarlavha tanlang.

Inson umri tongdan shomgacha kechguvchi sinov....

(Masalan, Tong – chaqaloqqa o‘xshaydi. Peshin - navqiron yigit, asr - keksalik ostonasi. Shom – oftobning botishi, umrning nihoyasi.)

2-topshiriq. Quyidagi so‘zlarni “baliq skeleti” metodi asosida 2 guruhga ajrating. “Baliq skeleti”ining o‘ng tomoniga sinonim so‘zlarni va chap tomoniga sinonimik qatorida darajalanish mavjud bo‘lgan so‘zlarni joylashtiring.

- 1.Aloqador-daxldor-oid-taalluqli
- 2.Beparvo-beg‘am-bee`tibor-loqayd
- 3.Chopmoq-yelmoq-yugurmoq
- 4.Bosilmoq-to‘xtamoq-qolmoq
- 5.Ilg‘or-zarbdor-karvonboshi
- 6.Inoq-ahil-qadrdon
- 7.Saralamoq--saylamoq-sarxillamoq
- 8.Urmoq-kaltaklamoq-tushirmoq-do‘pposlamoq
- 9.Xunuk-badbashara-badqovoq-bedavo-nadomat
- 10.Ko‘p-sanoqsiz-behisob-mo‘l



Sifat so'z turkumi bo'yicha tahlil namunasi

Yana Munixon maysa ustiga yoyilgan oppoq ro'yja ustida yonboshlab quloq berishda davom etdi. (A.Qahhor "Sarob")

1. So'rog'i: qanday?;
2. Belgining xususiyatiga ko'ra: asliy sifat;
3. Lug'aviy ma'no guruhiga ko'ra: rang-tus bildiruvchi sifat;
4. So'zshakl turiga ko'ra: sintetik shaklli;
5. Tuzilishiga ko'ra: sodda tub;
6. Belgi darajasiga ko'ra: orttirma darajali sifat;
7. Orttirma darajaning hosil bo'lish usuliga ko'ra: fonetik usul.

Test topshiriqlari

1. Sifat so'z turkumiga oid bo'lgan iborani toping.
 - A) ko'zi ilindi
 - B) ko'zini moshdek ochmoq
 - C) yeng shimarib
 - D) bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday
2. "OT+SIFAT" tarkibli qo'shma sifatlar berilgan qatorni toping.
 - A) tezpishar, yebto'ymas, kechpishar
 - B) boshqorong'i, tepakal, xonavayron
 - C) xomkalla, sho'rpehona, sofdil
 - D) balandparvoz, nonko'r, kamxarj
3. Qaysi qatorda leksik usul bilan hosil bo'lgan orttirma daraja sifati mavjud.
 - A) Bugun biroz yaxshiman.
 - B) Qop-qora uzum donalariga ko'zim tushdi.
 - C) Ustoz Nazarova juda kuchli bilim egasi.
 - D) B va C javoblar to'g'ri

4. Hayot shu ekan-da: yog'du va zulmat,

Qish-u yoz, o'ng-u tush, tirik va o'lik...

Shusiz bo'lmas ekan tugallik sira,

Hatto qush nag'masi: go'zal va xunuk. (A.Muxtor)

Ushbu she'riy misrada qo'llangan sifatlar sonini aniqlang.

A) 4 ta

C) 6 ta

B) 5 ta

D) 3 ta

5. Qaysi qatordagi qo'shma sifat qismlari ega bilan kesim grammatik munosabatlari asosida birikkan?

A)sofdil

B)cho'qqi soqol

C)bosh yalang

D)havo rang

6. Qaysi qatordagi qo'shma sifatlar tub-yasama so'zlardan hosil bo'lgan?

A)ertapishar

B)o'zbilarmon

C)cho'rtkesar

D)kuydi-pishdi

7. Qaysi juft sifatning faqat bir qismi mustaqil ma'no anglatadi?

A)shaldir-shuldur

B)bo'sh-bayov

C)ola-quroq

D)o'ydim-chuqur

8. Quyidagi sifatlardan qaysi birlari sodda sifatlar hisoblanadi?

1.katta 2.chiroyli 3.ishyoqmas 4.shishasimon 5.ko'kintir

- A)1,2,3
- B)faqat 1
- C)1,2,3,4,5
- D)1,2,4,5

№	Ushbu sifatlarning nomi	Ushbu sifatlarning turi
1	Yana bir yilning baharida	Ushbu sifatlarning nomi
2	Yana bir yilning baharida	Ushbu sifatlarning turi
3	Yana bir yilning baharida	Ushbu sifatlarning nomi
4	Yana bir yilning baharida	Ushbu sifatlarning turi
5	Yana bir yilning baharida	Ushbu sifatlarning nomi
6	Yana bir yilning baharida	Ushbu sifatlarning turi
7	Yana bir yilning baharida	Ushbu sifatlarning nomi
8	Yana bir yilning baharida	Ushbu sifatlarning turi

Son soʻz turkumi. Son soʻz turkumi lugʻaviy maʼno guruhlari

56-mashq. Oʻqing. Son soʻz turkumidagi soʻzlarni topib, maʼnoviy guruhlarga ajrating.

1. Yigirmatacha qadam bosib, orqasiga oʻgirildi. 2. Ikkalasi ham oʻzicha haq boʻlib, uzr soʻrash xayollariga ham kelmasdi. 3. Siz xavotir olmang, ikki-uch oyda eson-omon qaytadi. 4. Uch doʻst yarim tunga qadar suhbatlashib oʻtirishdi. 5. Haqiqatan ham chorak soat oʻtar –oʻtmas Mavlon keldi. 6. Qisqa qilib aytganda, ommaviy axborot vositalari tom maʼnoda “toʻrtinchi hokimiyat” darajasiga koʻtarilmogʻi lozim.

57-mashq. *Bir* soʻzining qoʻllanishiga eʼtibor qaratib, qanday maʼnolarni ifodalayotganini aniqlang va javoblarni moslashtiring.

T/R	Gaplar	Javoblar	Toʻgʻri javoblar
1	Yana bir gapni ayting.	noaniqlik	
2	Bir oʻzbek yigiti soʻzlay boshladi.	harakat	
3	Yomgʻir bir yogʻdi.	gumon	
4	Bola bir bizga qaraydi, bir otasiga qaraydi.	moʻljal	
5	Mashina bir lapanglab ilgariladi.	miqdor	
6	Tiling bilan koʻnglingni bir tut.	bir xil	
7	Birov keldi.	chegaralash	
8	U mening birim.	kuchaytirish	

9	Birgina shu muammo qoldi.	o'xshashik	
10	Ertaga bir dam olaman.	navbatma-navbat	

58-mashq. 1-topshiriq. Quyidagi gaplardagi son so'z turkumiga oid so'zlarni ajratib yozing.

1. Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi. (Maqol) 2. Bir yigitga yetmish hunar oz. (Maqol) 3. Hozir planetamizda nashr qilinayotgan barcha kitob mahsulotlarining deyarli uchdan bir qismi rus tilida bosilmoqda. (Gazetadan)

4. Sizga ma'lum: paxtani birinchi yil ekishimiz. (Sh.Rash) 5. Shu orada to'rttacha samosval oldinma ketin g'isht to'kib ketdi. (S.Ahmad) 6. Og'irligi 70 kg keladigan odam Oyga chiuqsa, uning vazni 11,7 kg dan oshmaydi. ("Qiziqarli geografiya") 7. Bir zunda ikkov, uchov, to'rtov, beshov bo'lishdi. (P. Tur.) 8. Non daraxtining 15-20 yillik bir tupi bir-ikki kishini, besh-olti tupi esa katta bir oilani bir yil boqa oladi. ("Qiziqarli geografiya") 9. Adolat mastavadan bir-ikki qoshiq ichdi. (S.Zunnunova) 10. Bir hovuch yerdagi poliz ham la'nati bo'rondan sog' qolmadi. (Sh.Rash.)

2-topshiriq. Sonlarni quyidagi ma'noviy guruhlarga ajratib yozing.

Sanoq son:

Dona son:

Chama son:

Jamlovchi son:

Taqsim son:

Tartib son:

3-topshiriq. Son qatnashgan soʻz birikmalarini ajratib yozing va ularning sintaktik vazifalarini belgilang.

Namuna: yetmish hunar, aniqlovchi...

59-mashq. *Bir* soʻzining qoʻllanishi va vazifasiga koʻra guruhlariga misollar keltiring va maʼnolarini izohlang.

1. «Miqdor» maʼnosi: *Yana bir gapni ayting.*

2. «Noaniqlik» maʼnosi:

3. «Harakat belgisi» maʼnosi:

4. «Moʻljal» maʼnosi:

5. «Bir xil» maʼnosi:

6. «Kuchaytirish» maʼnosi:

7. «Navbatma-navbat» maʼnosi:

8. «Oʻxshashlik» maʼnosi:

60-mashq. Berilgan hisob soʻzlarini quyidagicha mikrosistemalarga ajrating.

Bosh, nafar, dona, nusxa, tup, jon, dasta, toʻda, toʻp, sentner, misqol, qadoq, botmon, kosa, varaq, luqma, parcha, poy, siqim, tilim, tomchi, toʻgʻram, chaqmoq, chimdim, shingil, qultum, piyola, qop, qoshiq, quti, shoda, quchoq, hovuch, asr, yil, tiyin, miri, paqir, dinor, kun, kecha-kunduz, karra, qatla, dafʼa, sidra.

1. *Predmetni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi:*

2. *Predmetni butun yoki toʻdaning qismi sifatida hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi:*

3. *Predmetni toʻdalab, guruhlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi:*

4. *Predmetning ogʻirlik oʻlchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi:*

5. *Predmetning uzunlik va masofa o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi:*

6. *Vaqt o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi:*

7. *Qiymat o'lchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi:*

8. *Harakat miqdorini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so'zi:*

61-mashq. 1-topshiriq. Berilgan so'zlarni 4 ustunga bo'lib ko'chiring.

1.Uzunlik bildiruvchi:

2.Vaqt o'lchovini bildiruvchi:

3.Yosh hisobini bildiruvchi:

4.Pul hisobini bildiruvchi:

Dollar, qadam, asr, soat, kunduz, yashar, tanob, quloch, oylik, oy, hafta, so'm, tiyin, lahza, daqiqa, metr, oy, tillo, tanga, yil, miri, chaqirim, minut, kilometr, bir karra.

2-topshiriq. Matn tuzing va mazkur birliklarni qo'llang.

Sonning grammatik xususiyatlari

62-mashq. Quyida keltirilgan ilmiy qiymatga ega bo'lgan gaplarda nuqtalar o'rnini to'ldiring

1. "Predmetlarning sanog'i va asosan aniq miqdori uchun ishlatiladigan so'z"- sonning so'z sifatidagisi dir.

2. Hozirgi o'zbek tilida predmetning miqdorini, son-sanog'ini ifodalash uchun ko'proq ta sondan foydalaniladi .

3. Sonlar xususiyati bilan miqdor bildiruvchi so'zlardan farq qiladi.

4. Birdan boshqa sonlarning barchasi predmet bildiruvchi soʻzlarga qoʻshilib uningni ifodalaganligi uchun son bilan birga kelgan otlarshaklini olmaydi.

63-mashq. 1-topshiriq. Berilgan gaplardagi sonlarning sintaktik vazifasini belgilang.

1. *Daftarning uchtasi menda.* 2. *Darvoza tepasiga shoxning ikkitasi qoʻyilgandi.* 3. *Bu xotinning joni bitta emas, balki mingta.* 4. *Samarqandni bir necha marta koʻrganman.* 5. *U marraga birinchi yetib keldi.* 6. *Bir chetda gulzor oralab ikkita chiroyli qiz gul terib yuribdi.* 7. *Qarzni odamning ikkinchisidan soʻrang.*

2-topshiriq. Har bir gap boʻlagiga sonning bir guruhini ishtirok ettirib oʻzingiz mustaqil gaplar tuzing.

Namuna: 1. *Daftarning uchtasi menda.* Uchtasi – ega; talabalarning oltitasi buxorolik.

64-mashq. Matndan hisob soʻzlarni toping va grammatik xususiyatlarini izohlang.

Soat va Daqiqa

– Odamlarga hayronman, – dedi Daqiqa mili, – joningni jabborga berib ishlaysan-u, lekin sen bilan hech kimning ishi yoʻq, nuqul soatni soʻrashadi...

– Unuming yoʻq-da, uka, sening oltmish qadaming-u, mening bir qadamim, -dedi unga Soat mili.

Til va Tishlar

– Muncha : yoʻlimni toʻsmasanglar, oʻz holimga qoʻyasizlarmi, yoʻqmi, - bobillab ketdi Til Tishlarga.

– Xayriyat-ki, biz bormiz, boʻlmasa sen haddingdan oshib, bir quloch boʻlib ketarding, ‘deyishdi Tishlar.

Qizilishton bilan Qurt

Qizilishton qurt tushgan daraxtga qo‘nib, tumshug‘i bilan taqillata boshladi.

– Kim kerak? – dedi Qurt ichkaridan.

– Daraxtni kemirib yotgan zararkunanda kerak. Bu yoqqa chiqsin, ishim bor, – dedi Qizilishton.

Qurt kavagiga ming bekensin – bekor...

65-mashq. Matnni o‘qing. Sonlarni topib grammatik xususiyatlarini izohlang.

Yaxshilik

Hakimlar aytmishlar: “yaxshilikning asosi uch narsada birinchi, barchaga nisbatan riyosiz kamtarinlikda, ikkinchi, minnatsiz saxovatda, uchinchi, haq talab qilinmaydigan xizmatda. Odamlar to‘rt narsani qidirmaslikka ilojisizdirlar: birinchi, yaxshilik va yomonlikni ajratishga yordam beradigan ilmni, ikkinchi, tirikchilik o‘tkazishga kerak bo‘ladigan asbob-anjomlarni, uchinchi, kayfiyatni yaxshi tutadigan vositalarni, to‘rtinchi, odamlar bilan murosani.

Buqrot hakim aytgan edi: “Ortiqcha shirin bo‘lmaginki, yeb yubormasinlar va ortiqcha achchiq bo‘lmaginki, tuflab tashlamasinlar”. (Abulbarakot Qodiriy)

66-mashq. Son so‘z turkumiga oid berilgan hukmlarning qaysilari to‘g‘ri? Javoblarni jadvalga “Ha” yoki “Yo‘q” tarzida kiriting.

A. «Predmetlarning sanog‘i va asosan aniq miqdori uchun ishlatiladigan so‘z» – sonning so‘z turkumi sifatidagi UGMsi.

B. Son ot bilan kelib, doimo aniqlovchi vazifasini bajaradi.

C. Son va sifatni aniqlovchi sifatida qo'llashga to'g'ri kelganda avval sifat, keyin son joylashadi.

D.Son ma'no va grammatik xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi: tartib va miqdor son.

E.Son yasalmaydi, ammo yasalish uchun asos bo'lishi mumkin.

F.Son tuzilishiga ko'ra 3ga bo'linadi: sodda, qo'shma va juft sifatlar.

A	B	C	D	E	F

67-mashq. O'qing. Quyida berilgan gaplarda son so'z turkumiga oid so'zlarni aniqlang va gapdagi vazifasini izohlang.

1.Xullas, ikkala xonadonning tirikchiligini, ro'zg'orini oyim bilan singilcham tebratib turardi.(Ch.A.) 2. - Shamsiddinov, bir soatga yaqin shu to'g'rida gaplashdik, xayolingiz mijozlaringizdamidi? (Sh.X.) 3. Ikki kun burun qizi o'qishga ketdi-yu, qaytmadi. (T.M.) 4. Ona itdan ellik-oltmish qadam beridan o'tdi. (T.M.) 5. Ertasi saharlab Doniyor ikkalamiz otlarni xirmonga olib keldik. (Ch.A.) 6. Birlamchi, g'alamis odamlarning gapiga quloq solmanglar, ikkilamchi, o'zlaring bilasizlar, mardikorlikka ketganlar ko'pi bilan olti-yetti oylarda qaytishadi...(A.Qah.).

68-mashq. Sonlarning tuzilishiga ko'ra turlarini ajrating.

o'n ikki, bir, uch-to'rt, yetti, bir ming ikki yuz to'qson sakkiz, yetmish, sakson, beshta-beshta, olti -yetti, to'qqiz, ellik, million, o'ttiz bir, ikki-uchtadan, ikkita-ikkita, sakson olti...

Sodda sonlar Qo'shma sonlar Jufta sonlar Takror sonlar

69-mashq. Tarjimayi holingizni yozishga tayyorlaning. Unda qo'llagan son turkumiga oid so'zlarning LMGLarini sharhlang.

KEYS TOPSHIRIQ

I. Son deyilganda nima tushuniladi? Ushbu so'z turkumida nimalar o'rganiladi? Demak, bu turkum bevosita matematika bilan bog'liqmi?

II. Berilgan gaplardagi numerativlarni toping. Tarixiy numerativlarni bugungi kundagi muqobili bilan almashtiring.

1. Qishloqqacha taxminan olti chaqirim qoldi, yana biroz sabr qiling. 2. Bir yillik xirojni - uch yuz dinorni oldindan olib qo'ydi. 3. Shuncha vaqtdan buyon, hatto, bir marta ham kelib-ketmadi. 4. Uch-to'rt oy deganda qaytib qoladi. 4. Yerlarining tanobini o'zi ham bilmasa kerak. 5. O'g'il halol mehnat bilan ishlab topilgan bir tanganing qadrini endi anglagandi. 6. Olti yoshli bolaning butun bir kitobni yod bilishi, ularni esankiratib qo'ydi. 7. Zulfiqorning xotini bir qiyiqchada uch-to'rtta anor, bir qadoq sariq kishmish olib keldi.

III. Sonning grammatik xususiyatlaridan kelib chiqib nuqtalar o'rnini to'ldiring va ularni izohlang.

1. Sanoq songa ... affiksining qo'shilishidan predmetning tartibiga ko'ra munosabatini ifodalovchi grammatik ma'no yuklanadi. 2. Sanoq songa ... affiksining qo'shilishidan predmetning taqsimini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi. 3. Sanoq songa ... , ... affikslarining qo'shilishidan predmetning guruhini, to'dasini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi. 4. Sanoq songa ... , ... affikslarining qo'shilishidan predmetning taxminiy hisobini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi.

IV.Krossword

- 1.Sonning barcha gap bo‘lagi vazifasida kelish hodisasi.
- 2.“Predmetlarning sanog‘i va asosan aniq miqdori uchun ishlatiladigan so‘z”-sonning so‘z turkumi sifatidagi ...si.
- 3.Sonlar gapda asosan ... vazifasida keladi.
- 4.Miqdor sonning bu turi sanalishi mumkin bo‘lgan har qanday predmetning sonini, miqdorini ko‘rsatishga xizmat qiladi
- 5.Donalab sanashda hamma vaqt -ta affiksi bilan yasalgan donalik son ishlatilavermaydi. Ba‘zi bir predmetlarni sanashda ...tipidagi so‘zlardan foydalaniladi.
- 6.Bu turdagi sonlar predmetlarning miqdor jihatdan teng bo‘linganligini bildiradi.
7. ...sonlar ko‘pincha egalik affiksi bilan keladi.
8. ... sonlar sintaktik jihatdan otga yaqin turadi.

1									
2									
3									
4									
5									
6									
7									
8									

Son soʻz turkumi tahlil namunasi

Otliq kazaklar, -- ular koʻp emas, sakkiztacha edi,-- choʻlning ichkarisiga kirgan sari olomonga uncha eʼtibor qilmay qoʻyishdi. (A.Muxtor "Chinor")

1. Soʻrogʻi: nechta?
2. Maʼno va grammatik xususiyatiga koʻra: miqdor son;
3. Lugʻaviy maʼno guruhiga koʻra: chama son;
4. Soʻzshakl turiga koʻra: sintetik shaklli;
5. Tuzilishiga koʻra: sodda tub.

Test topshiriqlari

1. Qaysi qatorda songa oid grammatik xususiyatlar notoʻgʻri berilgan?

- A) Son boshqa soʻz turkumidan yasalmaydi.
- B) Sonning turlari maxsus qoʻshimchalar qoʻshish bilan yasalmaydi.
- C) Son otlashmasa turlanmaydi.
- D) Son odatda aniqlovchi soʻz bilan qoʻllanmaydi.

2. Qaysi javobda arab raqamlarining rim muqobili notoʻgʻri ifodalangan?

- A) CM-900, toʻqqiz yuz
- B) M-1000, ming
- C) LXX-70, yetmish
- D) CCD-200, ikki yuz

3. Qaysi sonlarga -lan qoʻshimchasini qoʻshish orqali yangi soʻz yasash mumkin?

- A) ikki
- B) yuz
- C) uch
- D) A va B

4. Sonning morfologik xususiyatlari qaysilar?

A) Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar sonning hamma turlariga ham qo'shilavermaydi.

B) Boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi.

C) Sondan turli so'z turkumlari yasalishi mumkin.

D) A, B C

5. Sonning sintaktik xususiyatlarini aniqlang.

A) Sonlar gapda aniqlovchi va kesim vazifasida keladi.

B) Sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so'zlarni o'ziga tobe qilib kelmaydi.

C) Boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi.

D) A, B

6. Kasr sonni toping.

A) Ikki hovli qo'shib yuborilgan edi.

B) ... qizarib-bo'zarib, ketmondek oynning yarmi ko'rinadi.

C) ... to'rt-beshtacha chakana havaskorlarga kelibdi.

D) Nonvoyxonadan ikkita issiq non olib chiqay.

7. Bir so'zi qaysi gapda chegaralash ma'nosini bildirgan?

A) U Toshkentdan vakil bo'lib kelgan bir rus kishi bilan gaplashmoqda.

B) Choy mahalida bir kulib, bir yig'lamsirab, o'zi, bolalari to'g'risida gapirdi.

C) Vodiy larni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda.

D) Hammamiz imtihonlardan yaxshi o'tdik, bir Ahmadning mazasi bo'lmadi.

8. Chama sonni toping.

A) Ularning har ikkalasi ham shu to'g'rida o'ylar edi.

B) To'rt-beshtacha chakana havaskorlarga kelibdi.

C) Lekin ular yiqqan kitoblar chol yiqqan kitoblarning o'ndan biriga ham teng kelmaydi.

D) Hozir ular bo'lajak shiyponning to'rtinchi ustunini tayyorlashyapti.

9. *Qurbon ota ikkinchi samovarga xumdan suv olib quymoqda edi. Shu gapdagi tartib sonning sintaktik vazifasini belgilang.*

- A)kesim
- B)ega
- C)to'ldiruvchi
- D)aniqllovchi

10. *Qaysi qatorda sonlarni yozishda imlo xatoga yo'l qo'yilgan?*

- A) bitta,ikkita
- B)uchchala, to'rttala
- C) besh- o'n, ellik-oltmishtacha
- D)uchdan bir, beshdan uch

Ravish so‘z turkumi. Ravish so‘z turkumi lug‘aviy ma’no guruhlari

70- mashq. Savollarga javob bering va topshiriqlarni bajaring.

1. *Ravishning o‘rganilishiga sharh bering.*
2. *Ravish va uning umumiy grammatik ma’nosi haqida gapiring.*
3. *Ravishning lug‘aviy-ma’noviy guruhlari sanang.*
4. *Ravishning sintaktik imkoniyatlarini bayon qiling.*
5. *Ravish va sifat munosabati haqida gapiring.*

71 – mashq. Quyida berilgan ravishlarning LMGLarini aniqlang.

Sal, bexosdan, bugun, doim, mardlarcha, ko‘plab, atay, noiloj, indin, majburan, qavatma-qavat, chor-nochor, saharlab, qahramonona, astoydil, hali, endi, arang, yana, xiyol, qasddan, qarich-qarich, yigitlarcha, atayin, ataylab.

72-mashq. Berilgan gaplardan ravishlarni aniqlang, ularni lug‘aviy ma’nolari bo‘yicha guruhlang.

1. Boshimizga keladurg‘on qattig‘ kulfatlarning ko‘pi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun : “Ko‘p o‘yla, oz so‘yla”, - demishlar. (A.Avloniy)
2. Shoir go‘yo Marvga – podshoh qoshiga jo‘nash kerakligini endi eshitganday ikkilanib: “Hozir borurman”, - dedi-da, yana avvalgicha sekin ketdi. (Oybek)
3. Agar san’atkor hamma narsani topib-bilib olgan bo‘lsa va pand-nasihatga berilsa yoki atayin maynavozchilik qilsa, u hech kimga ta’sir etolmaydi. (L.Tolstoy)
4. Ko‘p so‘zning ozi yaxshi, oz so‘zning o‘zi yaxshi.
5. Oz so‘z – soz so‘z.
6. Qayoqqa qaramang, xalqimiz fidokorona mehnat

qilmoqda. 7. Yaxshilikcha kelmasang, o'zim seni sudrab olib kelaman.

73-mashq. Matn ichidan ravishlarni topib, ma'nosiga ko'ra turlarga ajrating.

Mustaqillik

Mustaqil davlatimiz ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Buning natijalari bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarida namoyon bo'lmoqda. Chunonchi, siyosiy sohada - demokratik, huquqiy tamoyillarga asoslangan davlatchiligimiz qaror topdi. Qonun ustuvorligi kun sayin mustahkamlanmoqda. Iqtisodiyotni isloh etish borasida ham ancha-muncha yutuqlarga erishdik. G'alla va neft mustaqilligining qo'lga kiritilgani, zamonaviy samolyot va avtomobil ishlab chiqaradigan hamda eksport qiladigan davlatlar qatoriga qo'shilganimiz, ko'plab zarur ehtiyoj mollarining o'zimizda ishlab chiqarila boshlagani - barcha-barchasi iqtisodiyotimizning bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga moslashib borayot-ganidan dalolat. Jamiyatni ma'naviy yangilash borasidagi ishlarimiz ham g'oyatda salmoqli. Xalqimiz bugungi kunda mustaqillikning tub mohiyatini teran anglab yetmoqda. Milliy istiqlol mafkurasi shakllanib, uning asosiy g'oyalari yurtdoshlarimiz qalbidan chuqur joy olmoqda. Xullas, bugun mustaqillik hayotimizning asl mazmuniga aylandi. Xalqimiz qalbida kelajagini o'z qo'li bilan bunyod etishga ishonch tug'ildi. Mintaqamizda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm xuruji kuchaygan bugungi kunda ana shu qo'rg'onning himoyachilari bo'lgan yoshlarning mafkuraviy yetukligini ta'minlash dolzarb masaladir. Darhaqiqat, bugun yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirmasdan turib, milliy ildizlari baquvvat, dunyoni

chuqur anglaydigan, hech qanday aqidaparastning da'vatiga uchmaydigan, xurofiy ta'sirlarga berilmaydigan insonlarni tarbiyalash mushkul.

74-mashq. Berilgan gaplarda faqat hol vazifasida kelgan ravishlarni toping va qaysi ma'no turiga kirishini izohlang.

1.Kumushxon – ko'p yaxshi talaba. 2.Dilshod yayov keldi. 3.Kecha tunda sodir bo'lgan noxush voqea uning qulog'igacha borib yetdi. 4.Salmon ota gapni uzoqdan boshladi. 5.Ko'plar bu holatga beparvolik bilan qarashdi. 6.Menda kitoblar ancha. 7.Bugun erta turib tongni ko'rdim. 8.Aytganday, do'stim, yaqinda to'yi bo'larmish.

75-mashq. Quyidagi so'zlarni turkum jihatdan ajrating.

Yayov, kecha, piyoda, asta, sekin, kunduz, tong, eskicha, o'rtacha, birdaniga, oqshom, olis, atrof, o'rta, u yerda, yuqorida, bu yerda, pastda, old, orqa, oz, mo'l, butun, to'la, keyin, past, baland, oz, yuqori, doimo, yaqinda, nari-beri, unda-bunda, atayin, oz, bisyor

Ravish derivatsiyasi

76-mashq. Ravish so'z turkumi ishtirok etgan maqollardan foydalanib, pastda berilgan topshiriqlarni inobatga olib kichik hikoya tuzing. Ularning sifatlardan farqli tomonlarini kusating.

1-topshiriq. Ravish asosli yasama so'zlarni toping va so'z turkumini aniqlang.

2-topshiriq. Hikoyadagi ravishlar va fe'lning ravishga xos vazifa shaklining o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsating.

3-topshiriq. Hikoyada ishtirok etgan ravishlarning uslubiy ma'nolarini izohlang.

4-topshiriq. Ravish yasovchi morfemalar omonimligiga misollar toping.


5-topshiriq. Hikoyadagi yasama ravishlarning yetakchi morfemasi qaysi soʻz turkumi ekanligini aniqlang.

6-topshiriq. Ravishlarning gapdagi vazifasini toping.

77-mashq. Gaplarni oʻqing va ravish turkumiga oid soʻzlarni aniqlang.


1.Sizni hazrat Navoiy tavalludiga bagʻishlab oʻtkaziladigan fakultetiiz adabiy – badiiy kechasiga lutfan va qalban taklif etamiz.2. Mastura ayyorona javob berdi. 3. 4-kurs talabalari paxta yigʻim-terimiga qisman borishmadi.4. Kunduzlari havo biroz iliydi. Xonaga birin-ketin qizlar kirib kela boshladi. 5. Soʻrida qat-qat duxoba koʻrpachalar ustma-ust toʻshalgan edi. 6. Yurtim, senga sheʼr bitdim bu kun, Qiyosingni topmadim also. Shoirlar bor oʻz yurtin butun olam aro atagan tanho.

1-topshiriq. Aniqlangan ravishlarning maʼnaviy guruhlarini aniqlab, ustunda ifodalang.



2-topshiriq. Gaplardagi ravishlarning yasalish tarkibini tushuntiring.

Namuna:



78-mashq. Ravishning umumiy xususiyatlariga xos bo'lgan savollarni mustahkamlang.


T/R	Savollar	Javoblar	To'g'ri javoblar
1	“Mustaqil so‘zning hech bir guruhiga sig‘may qolgan so‘z ravish turkumiga yig‘ilgan”	ot	
2	“O‘zgarmas so‘z (ravish) maxsus grammatik shakllarni talab qiluvchi pozitsiyani mutlaqo egallay olmasligi bilan karakterlanadi”.	kuchaytirish	
3	«Asosan harakatning, qisman predmetning belgi, miqdor yoki holatini bildiruvchi o‘zgarmas so‘z?»	olg‘a, ilgariga, oldinga	
4	Harakatning kutilmagan paytda tez yuzaga kelganini ifodalovchi ravishlar?	payt ravishlari	
5	Harakatning yuz berish o‘rnini ifodalaydigan ravishlar?	V.V. Vinogradov	
6	Eng, juda, nihoyat, g‘oyat, lang, g‘irt kabilar qanday ma‘noni ifodalab keladi?	barchasi	
7	Endi, saharlab, hali, doim, indin ravishning qaysi turiga kiradi?	sifat	

8	Qaysi soʻz turkumlari ravishning yasashiga asos boʻla oladi?	ravish	
9	Askarcha, haftalab,akalarcha, qatorasiga, ruhan kabi ravishlarning yasash asosi?	T.Asadov	
10	Xafasimon, xomligicha, qatʼiyan, aybdorlarcha kabilarning yasash asosi?	toʻsatdan,qoʻqqisdan, birdaniga	

79-mashq. Berilgan sodda yasama ravishlarni toping va qaysi turkumdan yasalganini aniqlang.

1.Xona oʻzbekona yasatilgan edi. 2.Hozircha nima boʻlishi maʼlum emas, yashasak koʻrarmiz. 3. Ularning nima deyayotganlarini bilayotgandek, gunohkorlarcha bosh egib koʻzlarini yerdan uzmay turaverardi. 4. Ertasiga ertalab Usmon aka bilan uchrashdim. 5. Bu qotillik vahshiylarcha qilingan edi. 6. Rostakamiga ketib qolishini kutmagandi, shekilli, angrayib qoldi. 7. Sen ham yigitchasiga gapirgin-da, axir! 8. Bemahalda eshik taqillab, uning yuragi chiqib ketay dedi. 9. Men qaytara olmadim, - dedi Abror va kinoyaomuz jilmaydi. 10.Ona koʻchada izgʻirin boʻlishiga qarab turmay, mahsichan boʻlib yugurib ketdi.

80-mashq. Ravishlarning tuzilishiga koʻra turlari boʻyicha misollar keltiring.



81-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing. Qo‘shimchalarning qo‘llanishiga e‘tibor bering. (Kelishik, egalik)

1. Qo‘qqisdan singlim kirib keldi.
2. Men doim uni uzoqlarga tikilib kutaman.
3. Ota-onasini rozi qilgan odamning umri ziyoda bo‘ladi.
4. Yaqinda do‘stlarim uyga kelishdi.
5. Men birdaniga gapirib yubordim.
6. Qahramonga onasi bo‘lgan voqeani tezda so‘zlab berdi.

82-mashq. "Xushmuomalali bo‘laylik" mavzusida matn tuzing. Unda juft va qo‘shma ravishlarni ishlating.

83-mashq. Quyidagi omonim qo‘shimchalarga misollar yozing. Ular ikki xil so‘z turkumini ifoda etsin.

– n(-un,-un), -larcha, -cha, -lab, -da, -dan, -lar.

84-mashq. Quyidagi so‘zlardan qaysilari turlanish va tuslanish xususiyatiga ega emas? Ikki ustunda joylashtiring.

Yangidan, kechasi, kunduzi, kecha, bugun, erta, kechalari, tong, oqshom, avvallari, birdan, u yerda, bu yerda, oldinda, oz, to‘la, tez, sekin, o‘rtacha, yangicha, keyin, so‘ngra, doimo, juda, piyoda, old, orqa

85-mashq. Ma‘ruzada olgan bilimlaringizga tayanib, ravish haqidagi ma‘lumotlarni to‘ldiring.

1. Ravish so‘z turkumini o‘rgangan olim V.V.Vinogradov «... so‘z ravish turkumiga yig‘ilgan» deb haqqoniy baho bergan edi.

2. Sharq va g‘arb tilshunosligi ravishni ma‘no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa birortasiga xos bo‘lmagan belgi – ... bilan ismdan farqlaydi.

3. Ravishning soʻz turkumi sifatidagi UGMsi - ...

4. Qadimgi davrda keng isteʼmolda boʻlgan -ra (joʻnalish kelishigi), shuningdek, ... qoʻshimchalari ham ravish tarkibida qotib qolgan.

5. ... ravishi harakatning bajarilish usuli, tarzini bildiradi.

6. Noiloj, noilojlikdan, bekordan-bekorga, chor-nochor kabilar ... ravishlaridir.

7. Bajonudil, baholiqudrat, baqadrihol; har yili tuzilishiga koʻra ...

Keys topshiriq

“Venn” diagrammasi orqali ravish va boshqa mustaqil soʻz turkumlari orasidagi bogʻliqlik va farqli jihatlarni izohlang. Ravish qanday xususiyatlari bilan mustaqil soʻz turkumlari qatoridan joy oldi?



Ravish soʻz turkumi boʻyicha tahlil namunasi

Har kuni, har soatda fidoyi boʻlish, oʻzini tomchi va tomchi, zarrama-zarra maqsadlar sari charchamay, toliqmay tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik aslida mana shu.
(I. Karimov)

1. Soʻrogʻi: qanday?;
2. Lugʻaviy maʼno guruhiga koʻra: holat ravishi;
3. Tuzilishiga koʻra: murakkab ravish;
4. Murakkab ravishning turiga koʻra: takroriy ravish;
5. Soʻzshakl turiga koʻra: takroriy shaklli.

Test topshiriqlari

1. Quyidagi gapda ravish turkumiga xos soʻz qanday sintaktik vazifada kelgan? *Mehmonni uyga olib kir, men otga picha yem tashlab qoʻyay.*

- A) ravish holi
- B) oʻrin holi
- C) payt holi
- D) miqdor-daraja holi

2. Ravish oʻrnida qoʻllanuvchi olmoshlar berilgan qatorni toping.

- A) nega, qani B) men, sen
- C) siz, ular D) qancha, nega

3. *Salimanning koʻngli joyiga tushdi va aybdorlarcha tabassum bilan yigitga qaradi.* Ushbu gapda ravish qanday vazifada kelgan?

- A) hol
- B) sifatlovchi-aniqlovchi
- C) ega
- D) qaratqich-aniqlovchi

4. *Dam oʻtmay, aʻlochi oʻquvchilarni birin-ketin nom-banom chaqirishib, xonalarga taklif qilishdi.* Shu gapdagi ravishlarni toping.

- A) dam oʻtmay
- B) nom-banom, birin-ketin
- C) xonalarga, nom-banom, aʻlochi
- D) dam oʻtmay, nom-banom, birin-ketin

5. Soʻzlarni faqat belgi anglatish xususiyatiga asoslanib, qaysi turkumga ajratish mumkin?

- A) sifatga
- B) songa

C) ravishga

D) sifat va ravishga

6. O'sha yillar qancha-qancha vatandoshlarimiz qatag'on qilindi. Ushbu gapdagi ravishni toping.

A) o'sha

B) yillar

C) qatag'on

D) qancha-qancha

7. Ravish berilmagan qatorni toping.

A) so'zma-so'z

B) o'z-o'zidan

C) quruqdan-quruq

D) barchasi ravish hisoblanadi

8. Belgining belgisini bildirgan ravishni toping.

A) Mashina tuzroq yura boshladi.

B) Oqshom paytida shamol birdan to'xtadi.

C) Ra'no majlisda yaxshi gapirdi.

D) Uning so'zlari bolalarcha sodda, samimiy, lekin aniq va ravshan.

9. Suhbat haqida Aziza keyin uzundan uzoq so'zlab berdi.

Shu gapdagi ravishga oid so'zni toping.

A) so'zlab

B) keyin

C) uzundan-uzoq

D) B, C

Taqlid soʻz turkumiga oid topshiriqlar

86-mashq. Nuqtalar oʻrniga mos taqlid soʻzlarni qoʻyib koʻchiring.

1.... suhbatga quloq solib oʻtirdi. 2. Dahlizdan ... ovoz eshitildi. 3. Olmalar

...toʻkildi. 4. Alamidan ... yigʻlar edi. 5. Shamol ... esmoqda. 6. Miyangda aql ... boʻlsa ham, baʻzan oʻzingni yoʻqotib qoʻyasan. 7. Etigining ... ini pasaytirish uchun oyoq uchida yurib keldi.

1-topshiriq. Taqlidlarni ikkiga: tovushga va holatga taqlidni bildiruvchi soʻzlarga ajrating.

Namuna:

Tovushga taqlid:	Shivir-shivir
Holatga taqlid:	Duv-duv

87-mashq. Graduonimik jihatdan oshib boruvchi taqlidlar qatorini toʻldiring.

1) taq-tiq/tuq-tuq...

2) liq-liq/luq-luq/...

3) tirs-tirs/...

4) lip-lip/ ...

5) jiz-jiz/ jaz-juz/...

6) yilt-yilt/ yalt-yult/...

7) xur-xur/ ...

88-mashq. Taqlid soʻzlarini ishtirok ettirib gaplar tuzing. Unda taqlidlar quyidagi gap boʻlaklari vazifasida kelsin.

1.	EGA	<u>Shivir-shivir</u> tindi.
2.	KESIM	
3.	HOL	
4.	TOʻLDIRUVCHI	
5.	ANIQLOVCHI	
6.	QARATQICH ANIQLOVCHI	

89-mashq. Ushbu jadvaldagi gaplar tarkibida ishtirok etgan taqlidlarni LMGlarga koʻra moslang.

№	Taqlidlar	Ularning LMGlari
1.	Allakim ship-ship qadam bosib, ayvon yoniga kelayotganday boʻlardi.	holatga
2.	Boshidagi toj yal-yal yonarmish.	tovushga
3.	Namoz gʻazabi oshib dagʻ-dagʻ qaltiray boshladi.	tovushga
4.	Toʻrtta savagʻich bilan tap-tap urib, par singari qilib titibdi.	holatga

Javob:

1.	2.	3.	4.

90-mashq. 1) xil-xil; 2) dik-dik; 3) lapang-lapang; 4) lip-lip; 5) jiq-jiq; 6) ship-ship; 7) jimir-jimir; 8) yalt-yult; 9) yilt-yilt; 10) moʻlt-moʻlt. Ushbu taqlidlarni LMGlarga koʻra guruhlarga ajrating.

№	Taqlidning LMGLari	Taqlidlar
1.	Harakatni ifodalovchi taqlid	
2.	Tashqi ko‘rinishni ifodalovchi taqlid	
3.	Yorug‘likni ifodalovchi taqlid	

Javob:

№	Taqlidlarning LMGLari	Taqlidlar
1.	Harakatni ifodalovchi taqlid	2, ...
2.	Tashqi ko‘rinishni ifodalovchi taqlid
3.	Yorug‘likni ifodalovchi taqlid

91-mashq. Quyidagi taqlid so‘zlarni tuzilishiga ko‘ra guruhlang va shu taqlidlar ishtirok etgan gaplar tuzing.

1) *taq-tuq*; 2) *vag‘ir-vug‘ur*; 3) *guv-guv*; 4) *g‘arch-g‘urch*; 5) *duv-duv*; 6) *shartta-shartta*; 7) *cho‘lp-cho‘lp*; 8) *g‘ing-ping*; 9) *alang-jalang*; 10) *guppa-guppa*; 11) *apir-shapir*.

Juft taqlid	Takroriy taqlid

Javob:

Juft taqlid	Takroriy taqlid
1.....	3.....

92-mashq. Quyida berilgan taqlidiy so‘zlarni LMTlari bo‘yicha guruhlab, jadvalga joylashtiring.

Qah-qah, lip-lip, xil-xil, miyov-miyov, lik-lik, tap-tup, xir-xir, jimir-jimir, tipir-tipir, vag‘ir-vug‘ur, lapang-lapang, xur-xur, dik-dik, g‘ing-ping, alang-jalang, guv-guv, ship-ship, jiq-jiq, yalt-yult, mo‘lt-mo‘lt, g‘arch-g‘urch, taq-tuq.

“Tovushga taqlid” LMT.		“Ko‘rinishga taqlid” LMT.		
<i>Fiziologik tovushga taqlid</i>	<i>Fizik tovushga taqlid</i>	<i>Harakatni ifodalovchi taqlid</i>	<i>Tashqi ko‘rinishni ifodalovchi taqlid</i>	<i>Yorug‘likni ifodalovchi taqlid</i>


93-mashq. Taqlid so‘zlar ishtirok etgan bog‘li matn tuzing. Matningizga sarlavha qo‘ying. Taqlid so‘zlarni ajratib ko‘rsating hamda ularning grammatik tabiatini ochib bering.






Savollarga javob bering.

1. Taqlid so‘zlarning o‘rganilishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Taqlidning lug‘aviy- ma’noviy guruhlarini sanang.
3. Taqlidning lug‘aviy shakllari xususiyatlari qanday?
4. Taqlidning sintaktik imkoniyatlarini bayon qiling.
5. Taqlid va boshqa so‘z turkumlari munosabati haqida gapiring.

Keys topshiriq

Quyidagi jonivorlarning ovozlari taqlidni toping va ularni taqlid so‘z turkumidan boshqa qaysi so‘z turkumi orqali ifodalash mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.





Taqlid soʻz turkumi boʻyicha tahlil namunasi

Uning xurragi ham nechukdir adabiyroq edi: *“Pluq-qum-prr... pluq-qum-prr”*. (A.Qahhor *“Sanʼatkor”*)

1. Lugʻaviy maʼno toʻdasiga koʻra: tovushga taqlid;
2. Lugʻaviy maʼno guruhiga koʻra: fiziologik tovushga taqlid;
3. Tuzilishiga koʻra: takroriy taqlid;
4. Soʻzshakl turiga koʻra: takroriy shaklli.

Test topshiriqlari

1. Taqlid soʻz qaysi gapda hol vazifasida kelgan?

- a) Jigarim ostiga tegardi jiz-jiz, Sochlarim oqargan shunda ehtimol.
- b) Shunday boʻlsa ham, vujudini qalt-qalt titroq bosdi.
- c) Yetti qaroqchi yulduz tik kelganda qoʻngʻir-qongʻir ovozdan uygʻondi.
- d) Qoʻqqisdan osmon kaptari gʻuv-gʻuqlab qolishdi.

2. "Binobarin" soʻzi turkumiga oid soʻz?

- a) Modal soʻz
- b) Ravish
- c) Yuklama
- d) Koʻmakchi

3. *Gapirganda ovozi xuddi ichidan chiqqanday guldurab, jaranglab eshitiladi.* Ushbu gapda nechta yasama feʼl bor va ular qaysi soʻz turkumlaridan hosil boʻlgan?

- a) 2 ta, ot va taqlid soʻzlar
- b) 3 ta, ot va taqlid soʻzlar
- c) 3ta, ot, taqlid soʻz va undovlar
- d) 2 ta, ot va feʼldan

4. Taqlid soʻzlardan koʻproq qaysi turkumdagi soʻzlar yasaladi?

- a) ot
- b) feʼl
- c) sifat
- d) taqlid soʻzlardan soʻz yasalmaydi

5. Tovushga xos taqlid soʻz qaysi qatorda berilgan?

- A. Yalt-yult
- B. Lip-lip
- C. Qaltur-qultur

D. Dir-dir

E. Qars-qurs

6. Haydash-chaqirish undovlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

A. Hoy, ey, eh

B. Shov-shuv, gumbur-gumbur, taq-tuq

C. Kisht, beh-beh, qurey-qurey

D. Sharaq-shuruq, tars-turs, g'o'ng'ir-g'o'ng'ir

Olmosh soʻz turkumiga oid topshiriqlar

94-mashq. 1-topshiriq. Matndan olmoshlarni toping.

Hamma ishda kalla kerak

— Men ham gugurtman, — deb qoldi qatorda turgan gugurt donasi.

Uni ishlatib koʻrishdi. Yonmadi. Qarashsa, boshsiz ekan...

Yasama tish

Ogʻizdagi yasama tish oddiy tishlar oldida oʻzini koʻz-koʻz qilib yaltiragani-yaltiragan edi.

— Yasama-da, yasama, — deb unga ishora qilishardi oddiy tishlar.

Haqiqat

— Qayerdasan, Haqiqat? — deb nido qildi bir odam.

— Meni avvalo... oʻzingdan izla, — dedi Haqiqat.

Chaynalgan masala

— Meni kechayam chaynashdi, bugunam chaynashdi, u jagʻdayam chaynashdi, bu jagʻadayam chaynashdi, koshki yogʻim chiqsa, — deb jigʻibiyron boʻlardi Saqich.

Uni esa hamon chaynashardi...

2-topshiriq. Olmoshlarni maʼnoviy guruhlari boʻyicha grammatik xususiyatlarini izohlang.

3-topshiriq. Oʻzingiz ham shunday matnlar tuzishga harakat qiling.

95-mashq. Olmoshlarni topib, ularni izohlang.

Bu dunyoda men bir yo'lovchi...

Singlim Shuraga

Bu dunyoda men bir yo'lovchi,
Shodon menga qo'l silki, erkam.
Xuddi shunday tinch, erkalovchi
Ziyo to'kar kuz fasli Oy ham.
Isinurman Oyning taftiga,
Ilk bor undan orom olar jon.
Allaqachon so'ngan sevgiga
Umid bog'lab yashayman hamon.
Bunga bois — shu makonimiz,
Shu yer — oppoq, sho'r manglay turbat,
Qaylardadir toptalgan nomus,
Kimlargadir qadrdon g'urbat.
Yashirmayman, har kim ham bilar:
Boshqa-boshqa emas, jon singil,
Ikkimiz ham bir sevgi bilan
Shu vatanga qo'yganmiz ko'ngil. (Sergey Yesenin)

Bolalikka qaytgim keladi...

Hayot tashvishlari bo'lganda bisyor,
Qalbing sitamlarga to'lganida zor,
Hasad zahri seni qilganida xor,
Bolalikka qaytgim keladi.
Azizim, bu dunyo kengligini ko'r,
Sen ham bir mehmonsan, men ham bir mehmon,
Shirin lahzalarni qo'msayman har on,
Bolalikka qaytgim keladi.

Qaniydi, dunyoga kelsam qaytadan,
Xatolar qilmasdim bilib-bilmasdan
Qalbimni ochmasdim sinab ko'rmadan,
Bolalikka qaytgim keladi...

(Dilfuza Zaripova)

2-topshiriq. She'riy misralarda olmoshlarning qaysi ma'noviy guruhlarini ishtirok etishini aniqlang.

3-topshiriq. Olmoshlarning misralardagi o'rmini izohlang.

96-mashq. "Tikan bo'lib oyoqqa sanchilguncha, gul bo'lib ko'krakka sanchil" mavzusida matn tuzing. Matningizda olmosh ishtirok etsin.

97-mashq. 1-topshiriq. Matndan olmoshlarni toping va uslubiy qo'llanishi xususida xulosa chiqaring.

Anor

Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagina yangi zulfinga ilinib tirsakkacha yirtildi. Uning shashti qaytdi. Jo'xori tuyayotgan xotini uning qo'lidagi tugunchani ko'rib, kelisopni kelining ustiga qo'ya chopdi. Keli lapanglab ag'anadi, chala tuyilgan jo'xori yerga to'kildi. Turobjon tugunchani orqasiga bekitib, tegishdi:

— Akajon, degin!

— Akajon! Jo-on aka!..

— Nima berasan?

— Umrimning yarmini beraman!..

Turobjon tugunchani berdi. Xotini shu yerning o'zida, eshik oldida o'tirib tugunchani ochdi-da, birdan bo'shashib ketdi va sekin boshini ko'tarib eriga qaradi. O'z qilmishiga gerdayib turgan Turobjon uning ko'zini jiqqa yosh ko'rib:

— Nima ekanini bildingmi?—dedi.— Asalarining uyasi! Turgan-bitgani asal! Mana, mana, siqsang asal oqadi. Bunisi oq mum, harom emas — shimsa ham bo'ladi, chaynasa ham bo'ladi.

2-topshiriq. Grammatik shakllar qo'shilgan olmoshlarda qanday fonetik hodisalar kuzatilganini ayting.

98-mashq. 1-topshiriq. Gaplarda qo'llangan olmoshlarni aniqlang.

1. Kim mehnat qilsa, u rohat ko'radi. 2. Men kecha keldim. Sen buni bilasan. 3. Nima qilsam ham, men o'zim bilaman. 4. Hamma mehmonlar biznikida. 5. Barcha mushkulotlar oson bo'ldi. 6. Siz bugun darsda faol ishtirok etdingiz. 7. Xulq har kim o'z qiyofasini ko'rsatadigan ko'zgodir. 8. Nimani gapirish har doim ham muhim bo'lavermaydi, qanday gapirish esa har doim muhim. 9. Oyisining chehrasida faqat tashvish emas, allaqanday qo'rquv ham bor edi. 10. — Siz o'shamu?

2-topshiriq. Aniqlangan olmoshlarni ma'noviy guruhlarga ajratib yozing.

3-topshiriq. Aniqlangan olmoshlarning qaysi so'zlar bilan birikkanligini yozing.

1. Kishilik	
2. Ko'rsatish	
3. O'zlik	
4. So'roq	
5. Belgilash	
6. Bo'lishsizlik	
7. Gumon	

99-mashq. 1-topshiriq. 4-5 ta kichik guruhlarga bo'ling. Olmoshlar ishtirokida gaplar tuzing. Ularda olmoshlar quyidagi gap bo'laklari vazifasida kelsin.

1.	EGA	<u>Men</u> hamisha senga ishonganman, do'stim.
2.	KESIM	
3.	HOL	
4.	TO'LDIRUVCHI	
5.	ANIQLOVCHI	

2-topshiriq. Tuzilgan gaplardagi olmoshlarni so'z birikmalari bilan 3 ta guruhga ajratib quyidagi jadvaldagidek ifodalang.

<i>Bitishuvli birikma</i>	<i>Hamma o'quvchilar</i>
<i>Moslashuvli birikma</i>	
<i>Boshqaruvli birikma</i>	

100-mashq. 1-topshiriq. Quyidagi qaysi gaplarda olmosh munosabat ma'nosini ifodalab kelgan?

1. Sizdan iltimos, odamlar bilan juda ehtiyot bo'lib muomala qiling. 2. Shu-shu Otaqo'zi ochilib ketib o'rinli-o'rinsiz gaplarni ko'p gapirib yubordi. 3. Hech kimga, hech bir zotga qalbida nimalar kechayotganini bildirmasdi. 4. Mening qalbirndan nimalar kechayotgani yolg'iz Ollohgagina ayon. 5. Nizomjon o'z boshiga tushadigan savdolarning xuddi shu daqiqadan boshlanishini qayoqdan bilsin. 6. Uning yuzlarida, dudoqlarida... bir tabassum yonadi. 7. Sen mendan ko'p narsa kutma, chunki men senga hech narsa va'da bermaganman. 8. Salim boyvachcha uncha-munchaga ko'nadigan odamlardan emas.

2-topshiriq. Gapda olmoshning tuzulishiga ko‘ra qanday turlari ishtirok etganligini aniqlang va yozing.

101-mashq. 1-topshiriq. Quydagi jadvaldagi savollarni o‘qing va bo‘sh kataklarga “Ha” yoki “Yo‘q” javobini joylashtiring.

T/r	Savollar	“Ha” “Yo‘q”
1.	O‘zbek tilida III shaxs ko‘plik olmoshi, aslida, birlik sondagi olmoshning ko‘plik shaklidir.	
2.	Shunday, bunday, shuncha, buncha, shunaqa, unaqa, bunaqa so‘zlari belgilash olmoshlari sanalib, ular ko‘rsatish olmoshlaridan hosil bo‘lgan	
3.	Olmosh bildiruvchi ma‘no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqmaydi. Ular o‘zlari almashtiruvchi so‘z kabi morfologik jihatdan o‘zgarmaydi.	
4.	O‘zlik olmoshi shaxs olmoshi deb ham yuritiladi	
5.	Kishilik olmoshlariga egalik qo‘shimchalari umuman qo‘shilmaydi	
6.	O‘zlik olmoshi egalik qo‘shimchalarisiz qo‘llanilmaydi.	
7.	Olmoshlar o‘zidan oldin aniqlovchi talab qilmaydi.	
8.	Olmosh affiksatsiya usuli yordamida hosil qilinmaydi.	

102-mashq. 1-topshiriq. O‘qing. Ko‘rsatish olmoshlarini topib, ma’nosidagi farqlarni izohlang.

1.O‘sha zarb, o‘sha kuch hamon barqaror! 2.Zotan, bu mavqe, bu obro‘, bu boylik – hammasi Mirzo Ulug‘bek orqasidan orttirilgan edi. 3.O‘shanda, bundan yigirma besh yil muqaddam, ustod, mana shu pastqamlikda turib, Ali Qushchi bilan so‘ng bor vidolashganda bu elga qaytmoq, bu yurt, bu maskanni ko‘rmoq nasib bo‘ladimi, yo‘qmi, deb g‘am chekkan, bu o‘y, bu tashvishdan ko‘ngli vayron edi. Mana endi uning o‘zi ham shu o‘y, shu g‘am bilan banddur. 4.Oyijon! Manavi qizili menga! 5.Hozir u shu o‘tirishida o‘ylab o‘yiga yetolmadi.

2-topshiriq. Ko‘rsatish olmoshlarini o‘zi bog‘lanib kelgan so‘zlar bilan birgalikda ko‘chiring va ular qaysi so‘z turkumiga tegishli ekanligini izohlang.

103-mashq. 1-topshiriq. Quyidagi gapdan belgilash olmoshlarini topib, qanday o‘zgarganini ayting.

1.Axir bugun shunday kunki, har kim o‘z do‘sti bilan birga bo‘lgisi keladi! 2.O‘rta Yer dengizidagi juda ko‘p turg‘un baliqlardan ba‘zilarini boshqalariga nisbatan uzoqroq kuzatdim... 3.U har narsadan zavqlanish, lazzat topish, erkanlashni istar edi. 4.Dengiz barcha bo‘yoqlarni o‘zida singdirib, moviy rangdagina jilvalanar edi. 5.Qudratning birdan-bir maqsadi ularning hammasida haqiqiy fanga qiziqih uyg‘otish edi. 6. Har biri itdek-itdek keladigan bahaybat chumolilarni ko‘rdim...Har ajdar ilonlar borki, fildek keladi va fil kuchi bilan hamla qiladi... 7. Har bir odam uchun javobgarsiz. Mas’uliyatning bu tomonlarini ham sezing-da. 8. “Agronom” so‘zini eshitib, ba‘zi qizlar hazilni to‘xtatishgan bo‘lsa ham,

boshqa shaddodroqlari pisand qilishmasdi. 9.Uning chaqmoqdek chaq nab, qurilishga birdaniga jon kiritib yuborgani, hammani qattiq harakatga solib qo‘ygani durust.

2-topshiriq. Jamlovchi, yakkaga ajratuvchi, jamlikning qismini bildiruvchi belgilash olmoshlarini uch ustunga ajratib yozing.

Keys topshiriq

I.Olmoshning mustaqil so‘z turkumlari qatorida joylasha olishi yo olmasligi masalasiga fikr bildiring. Javoblaringizni “T” chizmada ifodalang.

Mustaqil so‘z turkumi
bo‘la oladi

Mustaqil so‘z turkumi
bo‘la olmaydi

IV. Quyida olmosh erkin qo‘llanilib, biror so‘zni almashtirmayotgan gaplarni toping va olmoshning qaysi ma’no guruhiga kirishini aniqlang.

1. Seningcha bu olmosning bahosi qancha? 2.Hayotda oq, qora, qizil, ko‘k ranglarni yoqtiraman, bu ranglar hayotim mazmuniga aylangan. 3. Dam o‘tmay u kaftlari bilan yassi peshonasini, baroq qoshlari aralash yuz-ko‘zlarini artardi. 4.Nodiraning opasi tikuvchi, u fabrikaning ilg‘ori. 5.Kim mehnat qilsa, u rohat ko‘radi. 6. Men kecha keldim. Sen buni bilasan. 7.Nima qilsam ham, men o‘zim bilaman. 8. Hamma mehmonlar

biznikida. 9. O'qituvchi darsga kirdi. U o'quvchilar bilan salomlashdi. 10. Yo'lchi non yopishni bilar edi. U bu kasbni otasidan o'rgangan edi.

Olmosh so'z turkumi bo'yicha tahlil namunasi

Har kimdan qurbi yetadigan narsani talab qilish kerak.
(A.S.Ekzyuperi "Kichkina shaxzoda")

1. **So'rog'i:** kimdan?;
2. **Lug'aviy ma'no guruhiga ko'ra:** belgilash olmoshi;
3. **Tuzilishiga ko'ra:** qo'shma olmosh;
4. **So'zshakl turiga ko'ra:** sintetik-analitik shaklli;
5. **Yasalish usuliga ko'ra:** kompozitsiya usulida yasalgan olmosh [har + so'roq olmoshi];
6. **Qaysi kelishik shakli bilan ifodalanishiga ko'ra:** chiqish kelishigida.

Test topshiriqlari

1. Olmoshlar quyida berilgan birliklardan qaysi biri o'rnida almashinib qo'llanadi?

- A) so'z o'rnida, gap o'rnida
- B) so'z o'rnida, so'z birikmasi o'rnida
- C) so'z birikmasi o'rnida, gap o'rnida
- D) so'z , so'z birikmasi, gap o'rnida

2. Olmoshlardan qaysi so'z turkumlarini yasash mumkin?

- A) fe'l B) ravish
- C) son D) A, B

3. Olmoshlar qaysi so'zlarning yasalishiga asos bo'lishi mumkin?

- A) sifatlarning
- B) iboralarning

C) sonlarning

D) A, B

4. Olmoshlar qaysi soʻzlar oʻrnida qoʻllanganda, sintaktik shakl yasovchi qoʻshimchalarni qabul qiladi?

A) ot

B) sifat

C) ravish

D) ot va feʼl

5. Olmoshlarga xos grammatik xususiyatlar qaysi javobda notoʻgʻri izohlangan?

A) Olmoshlardan baʼzi qoʻshimchalar orqali ot, ravish yoki feʼllar yasalishi mumkin.

B) Olmoshlar baʼzi soʻzlar bilan qoʻshilib, boshqa soʻz turkumiga koʻchishi mumkin.

C) Olmoshlardan baʼzi soʻz turkumlaridan qoʻshimchalar yoki sintaktik yoʻl bilan yasalishi mumkin.

D) Olmoshlar otlarga xos sintaktik shakl yasovchilar bilan oʻzgaradi.

6. Saida bu ayolni darrov yomon koʻrib qoldi.

Ushbu misoldagi olmosh gapning qaysi boʻlagi boʻlib ketgan?

A) ega

B) kesim

C) toʻdiruvchi

D) aniqlovchi

7. Olmoshning gapdagi vazifasi qaysi qatorda toʻliqroq va toʻgʻri koʻrsatilgan?

A) ega

B) toʻldiruvchi

C) aniqlovchi

D) aniqlovchi, toʻldiruvchi, undalma, ega

8. Bir xil talabalar berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarmaydilar. Ushbu gapdagi olmoshlarni toping.

A) bir xil

B) bir

C) o'z, bir xil

D) o'z

9. Qaysi gapda to'rt o'rinda olmosh ishtirok etgan?

A) U kishi faqirni nechundir ko'p xushlamaydilar...

B) Hammasi joyida, do'stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman.

C) Qaysi kuni redaksiyaga kirib, qanaqadir fel'yetonni bosilayotgan yerida to'xtatib qo'yibdi.

D) Shu vaqt kimdir uning ustidan bosib o'tdi-da, birdan to'xtab, yelkasidan tortdi.

10. Sen uning gapidan nimani aniqlading? gapida olmoshlar qaysi kelishik shakllarida kelgan?

A) bosh, qaratqich, o'rin-payt kelishigi

B) tushum, bosh, qaratqich kelishigi

C) bosh, qaratqich, jo'nalish kelishigi

D) bosh, qaratqich, tushum kelishigi

Yordamchi soʻz turkumlariga oid topshiriqlar

104-mashq. Yordamchi soʻz turkumlari boʻlgan koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklamaga xos xususiyatlarni raqamlari bilan ajratib koʻrsating.

1. Obyektning obyektga yoki obyektning predikatga boʻlgan turli grammatik munosabatini koʻrsatuvchi yordamchi soʻzdir.

2. Tobe munosabatdan tashqari, teng munosabatni ham hosil qilishi bilan ajralib turadi.

3. Soʻz va gaplarning bir-biriga boʻlgan sintaktik munosabatini ifodalamaydi.

4. Maʼno va vazifa jihatidan kelishik qoʻshimchasiga yaqin turadi.

5. Oʻzidan keyingi soʻzga aloqasi yoʻq.

6. «Bogʻlash» belgisi unda boʻlishi ham, boʻlmasligi ham mumkin.

7. Soʻz yoki gaplarga soʻroq, taʼkid, ayirish-chegaralash, gumon, oʻxshatish kabi maʼnolarni yuklaydi.

8. Gapning uyushiq boʻlaklarini va qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni oʻzaro bogʻlash uchun xizmat qiluvchi yordamchi soʻzlar.

T/R	Yordamchi soʻzlar	Xususiyatlari
1	Koʻmakchi	1.....
2	Bogʻlovchi	
3	Yuklama	

105-mashq. 1-topshiriq. Oʻqing. Matnda berilgan koʻmakchilarni topib chiqing va oʻzidan oldin kelgan soʻz bilan birgalikda gapda qanday sintaktik vazifa bajarganligini aniqlang.

1. Iymonli kishi aql-zakovat sohibi bo'lish bilan birga insoniy, ijtimoiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi. 2. Yaxshi kitob muallifning odamzod uchun atalgan tortig'idir. 3. O'quvchilar yaxshi o'qigani uchun mukofotlandi. 4. Sen bilan tortishmayman. 5. Halollik buyuklik sari dastlabki qadamdir. 6. Qish qo'ynidan baxt singari yoz uchib kelar. 7. Noroziliklar ila so'kilib borayotgan qalblarni shukronaliklar bilan yamab qo'yish kerak.

2-topshiriq. Ko'makchilarning matnda ifodalayotgan grammatik ma'nolarini aniqlang.

106-mashq. 1-topshiriq. O'qing. Quyidagi gaplarda berilgan ko'makchilarni mustaqil ma'nosidan uzoqlashganligiga qarab sof va vazifadosh ko'makchilarga ajrating.

1. Xudkushlik, bu o'z taqdiri bilan kelishish demakdir. 2. Odamlarni yomon ko'rishdan ko'ra yoqtirishga asoslar ko'proqdir. 3. Sen baxtsizlikning qarshisida ojizsan. 4. Haqiqat yog'du kabi ko'zni qamashtiradi. 5. Mehmonlar kechga qadar o'tirishdi. 6. Hamma xalq ochdan o'lmaslik uchun bir amal-taqal qilib turibdi. 7. Mening ko'nglim sezgan edi, shu sababli tushlikni chala-chulpa qilib, uy tomon yugurgan edim. 8. Sizning sog'ligingiz, sizning baxtingiz uchun gapirsak arziydi.

2-topshiriq. O'zingiz ham sof va vazifadosh ko'makchilar ishtirok etgan gaplar tuzing.

3-topshiriq. Affiks ko'makchilar xususida nazariy ma'lumot bering.

107-mashq. Quyidagi ko‘makchilar ishtirokida “Buxoro — sharq gavhari” mavzusida matn tuzing.

Ichra, chamasi, tomon, ko‘r, yanglig‘, uchun, singari, orqali, osha, bilan, sayin.

108-mashq. 1-topshiriq. Matnni o‘qing. Ko‘makchilarni ular bog‘langan so‘zlar bilan ko‘chiring.

O‘sha oilamiz boshiga og‘ir kulfat tushgan kuni, men, o‘n yashar bola, nimadandir ko‘nglim g‘ash, uyimiz ro‘parasidagi paxsa devorga chiqib, o‘zimcha go‘yo otga minib o‘tirardim. U mahalda biz Turkiston shahrining eng so‘lim joylaridan biri - Lager ko‘chasida ikki xonadan iborat, oldi ayvon, o‘sha zamon imkoniyatiga ko‘ra tuzukkina uyda istiqomat qilardik. Bu uyning kattagina hovlisi ham bor edi. Ikki qavatli ulkan darvoza orqali kiradigan bu hovlida bizdan tashqari yana bir nechta xonadon yashardi. Darvozaning ustida quruq pichan saqlanadigan boloxona bo‘lar, biz, bolalar oqshom paytlari berkinmashoq o‘ynaganda boloxonaga chiqib pichan tagida “jon saqlardik». Oilamiz boshiga musibat tushgan o‘sha mash‘um kundan bir necha oy muqaddam dadam uyimizdagi deyarli barcha kitoblarni uch-to‘rt qopga solib, beda tagiga yashirgan-u, boloxona eshigiga otning kallasidek qulf osib qo‘ygandilar. Endilikda boloxonaga hech kim kirolmas, faqat men goho-goho tuynukdan tushib, qoplardagi kitoblarni, ayniqsa sersurat, qalin kitoblarni tuynuk shu‘lasiga solib, tomosha qilib o‘tirishni yoqtirardim. Bu suratlar ham juda g‘alati, ularning aksari charm palto kiyib, bellariga qilich va to‘pponcha taqib olgan harbiy, ba‘zilari esa ot o‘ynatgan, qizil alvon ko‘tarib dushman sari ot surib ketayotgan mard-u maydonlar bo‘lsa ham, negadir barchasining ko‘zlari o‘yib olingan yoki yuzlariga ko‘k siyoh tortilgan edi. Nega

shunday? Men bu sir-asrorning tagiga yetolmay qiynalardim, dadamlardan so‘rashga esa yuragim dov bermas, sababi, dadamlar qahri qattiq odam edi, «bu kitoblarni senga kim ko‘rsatdi» deb dashnom berishlari mumkin edi. O‘sha qora kun ham nimadandir ko‘nglim notinch, kitob titish esimga tushib tomga chiqdim. Ammo tanish tuynukka yaqinlashganimda ko‘chaning boshida qo‘sh ot qo‘shilgan chiroyli foytungga ko‘zim tushdi. Sal o‘tmay, foytun darvozamiz ro‘parasiga kelib to‘xtadi... (Odil Yoqubov)

2-topshiriq. Matnda ifodalagan uslubiy xususiyatlarini izohlang.

109-mashq. 1-topshiriq. Quyida berilgan yordamchi so‘zlarni jadvalga joylashtiring.

Kabi, va, axir, -mi, -ku, faqat, biroq, ba‘zan, -da, singari, old, bo‘ylab, -dek, -day, ko‘ra, agar, ammo, basharti, xoh, -a, naq, go‘yoki, dovur, uchun, sari, avval, garchi, toki, hamda, -u, -yu, gohida, qarab, tomon, orqa, qarshi, oldin, -ya, bir, -dayin, hatto, -cha, -dir, sayin, orqali, chunki, shuning uchun, go‘yo, dam, yoki, yoxud, yo.

Yordamchi so‘z turi	Sof yordamchi so‘z	Qo‘shimchasimon yordamchi so‘z	Yarim yordamchi so‘z
<i>Ko‘makchi</i>			
<i>Bog‘lovchi</i>			
<i>Yuklama</i>			

2-topshiriq. *Va, bilan, faqat, uchun* yordamchi so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing.

110-mashq. Nuqtalar o‘rniga gaplarning talabiga mos ko‘makchilarni qo‘yib ko‘chiring.

1. Qimmatli fikrlar hozirda, sahnaga chiqayotgan yosh iste’dod sohiblariga sahna sirlaridan saboq olishlari... yordam berishi shubhasiz. 2. Yoshlarimizning bilimli, kasb-hunarli bo‘lishga, Vatanga sadoqat ... xizmat qilishga undash O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘z ifodasini topgan. 3. Milliy qadriyatlarga tayanib, dunyoviy bilim va hunarlarni egallab olayotgan yoshlarimizning fazilatlari... soatlab gapirish mumkin. 4. Vatan himoyasi yo‘lida jon fido etgan o‘g‘lonlarimizning onalari achchiq iztirob, og‘ir ayriliq... turib ham mardonalik... istiqlol... ko‘ksini qalqon qilgan farzandlari... faxrlanib gapirganini hammamiz eshitdik. 5. Qishloq ... taralayotgan kuy qizning yurak-bag‘rini ezayotgan edi. Undan... onangni bir bor yo‘qlab, asrlar... sayqallashib kelayotgan udumimizni saqlab qolmabsan-da. 7. Sen... mening niyatlarim kun... orqaga ketayotganligini his qila boshladim. (Gazetadan)

111-mashq. Matnni diqqat bilan o‘qing. Bog‘lovchilarni ajrating, ular qaysi bo‘laklarni bog‘lab kelayotganini sharhlang.

“...Ko‘ngil barcha ma’nolarni jamlagan ummondir, so‘z – ko‘ngil dengizidagi bir inju. Dengizdan injuni g‘avvos olib chiqqani va uning qiymatini tayin etganidek, ko‘ngildagi so‘z injusi so‘zlovchi tarafidan bezaladi, qiymati ham anglash darajasining nisbatiga ko‘ra belgilanadi. Injuning qiymati haqida: “darajalari ko‘p”, hatto; “qiymati bir dirhamdan 100.000 dirhamgacha bo‘lgan injular bor” deyish mumkin...”

So‘z injusining qiymati bundan-da ulug‘, darajasi bundan-da yuksakdir. Uning ulug‘ligi shu darajaki, o‘lik tanga ruh bag‘ishlaydi. Ayni paytda tirik jonni ruhdan mahrum etmog‘i mumkin. Har bir jamiyatning so‘z boyligi boshqalaridan, so‘zlarning ma’nolari-da o‘zgalaridan farqlidir va bir-birlarida

bo‘lmagan bir necha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qushlarning, hayvonlarning, yirtqichlarning tillari ham shundaydir. Har birining o‘ziga xos gapirish tarzi, bir bo‘lmagan tovush va sayrashlari bor. Ammo so‘z ma’no ifodalash xususiyatiga, inson fikrlash salohiyatiga egadir. So‘z – ma’no, inson esa bayon bulog‘idir...” (Alisher Navoiy)

112-mashq. O‘qing. Bog‘lovchilarni 2 guruhga ajratib yozing.

1. Ayol va ijod tushunchalari ayol va bahor kabi bir-biriga yaqin, uyg‘un. 2. Ipak kiyim-kechaklar dazmollanmasligi ma’qul, agar zarur bo‘lsa, teskari tomonidan yoki ustiga zig‘ir tolasidan to‘qilgan mato qo‘yib, qattiq qizimagan dazmol bilan dazmollanadi. 3. Alla ayting, shunday aytingki, bolangiz ulg‘ayib, dunyoni mehrga chulg‘asin. 4. Qo‘zg‘algan kasallikni yengish uchun tirik tanda «antitanacha»lar hosil bo‘ladi, ammo bu kasallikni yengish uchun har doim ham mikroorganizmlarning samaradorligi sezilarli bo‘lmasligi mumkin. 5. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimiga shunchaki bakalavr emas, balki qo‘sh ixtisoslikni ko‘zda tutgan bakalavr — mutaxassis zarurligini hisobga olish va barcha hujjatlarni shu yo‘nalishga moslashtirish kerak. 6. Muallifning Vatan, davlat va jamiyat oldidagi mas’uliyati shu qadar yuksakki, shaxsiy manfaat, mukofot yoki lavozim ilinjiga o‘rin qolmasin. 7. Nobel neft va portlovchi moddalar ishlab chiqarishdan orttirgan boyligini nafaqat fizik hamda ximiklarga, balki vrachlar, adabiyotshunoslar va tinchlikparvarlarga ham berilishini vasiyat qilib ketdi. 8. Mustaqillik! Seni hayotim bilan ham, san’atim, she’rim bilan ham asrayman. (*Gazetadan*) 9. Men buyuk yurt o‘g‘lidurman, Men bashar farzandiman, Lekin avval senga bo‘lsam Sodiq o‘g‘lon, o‘zbegim. (*E. Vohidov*)

113-mashq. Gaplarda qoʻllangan yordamchi soʻzlarning vazifasini aniqlang, ulardagi farqni tushuntirib bering.

1. Kumushbibi endi oʻn yettini qoʻyib, oʻn sakkizga qadam bosganida, boʻyi ham onasiga yetayozgan, ammo jussasi onasidan koʻra toʻlaroq koʻrinar edi.

2. Muloyim kishida insof ham, diyonat ham, eʼtiqodga sodiqlik ham, vijdon ham, sadoqat ham — hammasi boʻladi.

3. Ahmad Yassaviy koʻngil va til birligini qadrlagan.

4. Binolar qurildi, biroq tadbirkorlik ishlari qanday olib borilmoqda?

5. Sheʼr bilan kuyning hamohangligiga erishmoq zarur.

6. Ona baʼzan farzandi boshida parvona boʻlardi, baʼzan beshikka bosh qoʻyganicha uxlab qolardi.

114-mashq. Yordamchi soʻzlarni jadval kataklariga joylashtiring va umumiy xulosaga keling.

kabi, yolgʻiz, baʼzan, singari, sari, bir, sayin, axir, hatto, -dek, -day, dovur, uchun, orqali, -dayin, -cha, faqat, ham, old, oldin, orqa, qarshi, -mi, -ku, -gina, avval, boʻylab, , -a, -oq, koʻra, qarab, biroq, chunki, tomon va, hamda, ammo, lekin, basharti, garchi, xoh, -u, -yu, -da, vaqtida, gohida; agar, goʻyo, -yoq, -dir, shuning uchun, toki, dam, goʻyo, goʻyoki, yoki, yoxud, yo,-ki, (-kim), naq, atigi

Yordamchi soʻz turkumi turi	Sof yordamchi soʻzlar	Qoʻshimchasimon yordamchi soʻzlar	Vazifadosh yordamchi soʻzlar
Koʻmakchi			
Bogʻlovchi			
Yuklama			

115-mashq. 1-topshiriq. Bog'lovchilarni tasniflang. Gap bo'lagi va gaplarni bog'lashiga ko'ra, ya'ni vazifasiga ko'ra necha guruhga bo'linadi? Ularni ajratib ko'rsating.

1.Dunyoning tinchligi va farovonligi dono va oqil odamlarning faoliyatiga bog'liq. 2.Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak. 3.Dildor na o'qidi, na yozdi. 4.U nafaqat kattalarni, balki kichiklarni ham hurmat qilardi. 5.Hunar o'rgan,chunki hunarda sir ko'pdir. 6.Agar kitob o'qimasangiz, fikr doirangiz kengaymaydi. 7.Goh yalt etib quyosh ko'rinadi, goh hamma yoqni bulut qoplaydi.

2-topshiriq. Berilgan gaplarda bog'lovchilarning qanday turlari qo'llangan?

116-mashq. Berilgan gaplardagi bog'lovchilarning vazifasini izohlang.

1. Shaharga qaytganimizdan keyin Masturaning omonatini topshirish uchun Hoji akani topdim, lekin salomini topshirolmadim: Hoji aka bechora qazo qilgan ekan. 2.Na ko'kning fonari o'chmasdan, na yulduz sayr etib ko'chmasdan... 3. Otabek ko'zini to'ldirib binoga qaradi, go'yo bu qarashda u dunyo malagi bilan vidolashar edi. 4.Yaxshilab ta'zirini berish kerak, toki boshqa qaytarilmasin. 5.Homid maktabga bordi-yu, negadir tez qaytib keldi. 6.Vatanimiz poytaxtida, ya'ni Toshkentda diqqatga sazovor joylar ko'p. 7.Ko'z oldini tuman qoplab oldi-yu, hamma narsa tushday tuyula boshladi. 8.U ba'zan biznikiga kelib turadi. 9.Biz sayohatga poyezdda yoki avtobusda boramiz. 10.Mabodo boshingga qilich kelsa ham rost gapir.

117-mashq. 1-topshiriq. Matndan bog'lovchi va yuklamalarni toping hamda uslubiy xususiyatlariga ahamiyat qarating.

Ildiz

Og'riq tishni sug'urib tashlashdi-yu, ammo ildizi qolgan ekan, yana dard qilaverdi. Uni ham topib, olib tashlangach darddan forig' bo'lindi. Ha, illat ildizi bilan sug'urilmasa bekor!

Jilg'a

— Nega sen sokin oqasan-u, kenja ukang Jilg'a esa shovullagani-shovullagan? – deb so'rashdi daryodan.

— U hali sayoz-da, -deb javob qildi daryo.

Uchqun

— Umring muncha qisqa bo'lmasa-ya, - deyishdi Uchqunga. -Yonasan –u o'chasan.

— Alangam qoladi-ku, - dedi Uchqun.

It

— Nega meni yomon ko'rishib, it deyishadi, a ?- deb zorlandi it.

— Chunki sen bo'lar-bo'lmasga akillab, ko'ringanning iligidan olmoqchi bo'lasan-da, - deyishdi.

2-topshiriq. Yuqorida berilgan fikrlarni izohlang. O'zingiz ham hikoyat va hikmatlardan misollar keltiring.

118-mashq. Matnni o'qing. Yuklamalarning mosini qo'yib ko'chiring.

Vatan madhi

Vatandan shirinroq hech narsa yo‘q. _____, odamlar nimani__ muqaddas deb hisoblasa, nimani__ teran mazmun bilan sug‘orilgan, deb bilsa, bularning barini ularga Vatan o‘rgatgan emas__? Mayli, ko‘pgina odamlar o‘zga yurtlarning qudrati-yu ajoyibotidan zavqlansin, imoratlarning dabdaba-yu vasvasasiga qoyil bo‘lsin, lekin hamma Vatanini sevadi. O‘zga yurtlarning behisob mo‘jizalarini ko‘pchilik ko‘rgan, ammo hech kim ularga mahliyo bo‘lib o‘z yurtini unutib qo‘ygan emas__?!

Barcha odamlar Ollohdan Vatanini farovonlikda boshqa shaharlarga teng qilishni so‘raydi-yu, lekin tanlashga kelganda har qancha faqir-u ko‘rimsiz bo‘lsa____, _____o‘z Vatanini tanlaydi.

Vatan hamma odamlar uchun shu qadar aziz____, qonun chiqaruvchilar hamma joyda eng katta jinoyatlar uchun oliy jazo sifatida Vatandan badarg‘a qilishni belgilab qo‘yishgan. _____, janglarda safda turganlar uchun eng oliy, eng ulug‘ xitob — Vatan uchun jangga undaydigan xitobdir. Bu xitobni eshitgan hech bir odam undan bo‘yin tovlashni o‘ziga munosib bilmaydi____. __, «Vatan» so‘zi hurkak odamga ham jasorat bag‘ishlaydi.*(Lukian)*

Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama bo‘yicha tahlil namunasi

Tantanali yig‘ilish boshlangunga qadar askiya, o‘yin-kulgi davom etdi. (Oyb.)

1. **Shakli va bajaradigan vazifasiga ko‘ra:** sof ko‘makchi;
2. **Matnda qanday ma‘no ifodalashiga ko‘ra:** “chegara” ma‘nosida;
3. **Sinonimi:** -cha.

Mehmonlar garchi bunday vaqtda kishiga hech qanday soʻz tasalli bera olmasligini bilishsa ham, kampirga tasalli bergan boʻlib qoʻzgʻalishdi. (A.Qahhor “Asror bobo”)

1. **Shakliy jihatiga koʻra:** sof bogʻlovchi;
2. **Bogʻlovchining vazifa jihatiga koʻra:** ergashtiruvchi bogʻlovchi;
3. **Matnda qanday maʼno ifodalashiga koʻra:** “toʻsiqsizlik” maʼnosi;
4. **Ergashtiruvchi bogʻlovchining turiga koʻra:** shart bogʻlovchisi.

Ishni tezroq tugallash harakatida boʻl! Faqat qatʼiyatgina maqsadga eltadi. (T.Mann)

1. **Shakliy jihatiga koʻra:** sof yuklama(*faqat*), soʻz yuklama; qoʻshimchasimon yuklama (-gina)
2. **Yuklama vazifa jihatiga koʻra:** ayirish-chegaralash yuklamasi.

Keys topshiriq

I. Ushbu parchalarda qoʻllanilgan yordamchi soʻz turkumlarini toping. Sof va vazifadosh yordamchi soʻz turkumlariga ajrating.


Giribalaning otasi Xorkumar bilan Shoshibushonning munosabati yaxshi emas edi. Xorkumar bu magistr va bakalavrning oldiga dastlab har xil daʼvolar va sud jarayonlari munosabati bilan maslahatga kelib yurdi, ammo bakalavr bu xil ishlarga qiziqmaymi, noibga oʻzining bu borada hech narsa bilmasligiga iqror boʻldi.

* * *

Odam ota-onasini tanlayolmaganidek, Vatanni ham tanlayolmadi. Albatta, Alloh odamga Vatanni muzliklardan ham,

sahrolardan ham, changalzorlardan ham ato etishi mumkin. Lekin siz bilan bizga Alloh O'zbekiston deb atalgan jannatmakon yurtni Vatan qilib bergan ekan, buning uchun o'zimizni baxtli deb bilmog'imiz kerak.

II. Yordamchi so'z turkumlarining "oralik uchinchi" mavqeidaligini izohlang hamda o'xshashlik va tafovutlarini aks ettiring.



III. Nuqtalar o'rniga kerakli yordamchi so'zlarni qo'ying.

G'anzali kalommas, mehnatlar
Tana dashnommas, hurmatlar
Qayta yondirmasam o'shal o'tni,
Siz meni o'ldiring minnatlar

ma'qda baba,
yu bilan abzshota yar-
ba va
hunda uchun kaji

Test topshiriqlari

1. *Aziz ham bu savolni kutmaganligi uchun hatto ancha vaqtga qadar javob berolmay qolgan edi. Ushbu gapda mustaqil lug'aviy ma'no anglatmaydigan nechta so'z bor?*

- A) 4 ta
- B) 3 ta
- C) 2 ta
- D) 5 ta

2. *Qaysi qatorda o'xshatish qo'shimchasini ko'makchi bilan almashtirish mumkin?*

- A) Qanday xislatlarni rivojlantirish lozimligini bilish zarur?
- B) Jinday kuting, hozir majlis tugaydi.
- C) Bunday befarosatlar onda-sonda uchrab turadi.
- D) Unday demang, hamma ham birday emas.

3. *Qaysi javobda kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari berilgan?*

- A) -da, -gina (-kina, -qina)
- B) ham, g'irt
- C) -ki, -dir
- D) faqat, -oq, (-yoq)

4. *Qaratqich kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shilib keladigan vazifadosh ko'makchilarni aniqlang.*

- A) old, ost, ust
- B) qadar, sayin beri
- C) haqida, to'g'risida, qarshisida
- D) bilan, kabi, tomon

5. *U faqat shoirgina emas, balki adabiy tanqidchi ham edi. Mazkur gapda atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlar miqdorini toping.*

- A) 3 ta
- B) 4ta

- C) 5 ta
- D) 6 ta

6. Qaysi gapda sof ko'makchi ishtirok etmagan?

- A) Toshbaqa uyasi tomon sudraldi.
- B) Vatan ham ona kabi qadrlidir.
- C) Bu uchun hammamiz ancha gap eshitamiz.
- D) Yangiliklarni xat bilan ma'lum qilib turamiz.

7. Atash ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan so'zlarni toping.

- A) uchun, singari, kabi, tufayli
- B) lekin, shuning uchun, hamda
- C) tomon, keyin, misoli, qadar
- D) axir, nahotki, menimcha, chamasi

8. Gumon yuklamasi qo'llangan gapni toping.

- A) Suv hayot manbaidir.
- B) U sizni yo'qlab kelgandır.

C) Barcha gaplarda gumon yuklamasi qo'llangan.

D) Urug'ingdir, aymog'ingdir, biror og'zi maymog'ingdir.

9) Qaysi qatordagi ko'makchi chegara ma'nosini ifodalagan?

- A) Kechga qadar tinimsiz ishladik.
- B) Uygacha suhbatlashib bordik.
- C) Maktab tomon yo'l oldik.
- D) Shu kichik yo'lak orqali o'tasiz.

Soʻz- gap(semantik-funksional shakllangan soʻz -gap)lar oid topshiriqlar

119-mashq. 1-topshiriq. Quydagi matndan soʻz-gaplarni toping va maʼnosini izohlang.

...Laylak qishlogʻining eng katta boyi Muhsin guppi yotsa ham, tursa ham yeriga yer qoʻshishni oʻylardi. Yana bir orzusi dono va hozirjavob odam sifatida dovrugʻ taratish edi. Shu sababli oldiga Nasriddin Afandi kelib, sizga maslahatim bor, deganda, sevinganidan oʻyinga tushib ketgudek boʻldi.

— Xoʻsh, xoʻsh, — dedi u dik etib turib, salom-alikdan soʻng Nasriddin Afandini oʻtirishga taklif etarkan.

— Bilasizmi, mulla aka, — gap boshladi Nasriddin, «mulla aka»ning Muhsin guppiga moydek yoqishini bilib, - men bugun tush koʻrdim.

— Xoʻsh, xoʻsh? — Muhsin guppi unga bir piyola choy uzatdi.

— Tushinga otam rahmatli kiribdilar. «Bogʻingdan uch-toʻrt qadam yuqoriroqda odamdek keladigan, chorak qismi yerga koʻmilgan eski xum bor. Qishlogʻingdan uch-toʻrt bechorani topgin, uni suvga toʻldirishsin. Xumga eng oxirgi chelak suvni quygan odamga bogʻingning yarmini xatlab berasan», — dedilar.

— Iya, xudoyo tavba qildim! — dedi Muhsin guppi sevinchdan gupillab ketgan yuragini bazoʻr tinchitib.

— Taqdir ekan, qanday qilay? — dedi Nasriddin Afandi bechorahol qiyofada.

— Ha, endi tushga har balo ham kiraveradi-da, — dedi Muhsin guppi yupatgandek boʻlib, boʻlmagʻur narsa uchun hayhotdek bogʻning yarmidan ajralib oʻtirasizmi?

— Yo‘q, — dedi Nasriddin qat‘iylik bilan. — Otam rahmatlining tirikliklarida so‘zlarini ikki qilmasdim, endi ruhlari ozor cheksinmi?

— Ofarin! Ofarin! — Muhsin guppi ham sevinchdan, ham hovlidan quruq qolish vahimasidan bir turib yana o‘tirdi. — Balli! Yashang! — bu olqishini boyagidan ancha xotirjam aytdi. Chunki darrov reja tuzishga sho‘ng‘ib, ko‘zlari sovuq yiltiray boshlagandi.

— Xo‘sh, — Nasriddin gapning kashtasini yanada gajakdorroq qildi. — Qoshingizga kelishimning boisi, mulla Muhsin aka, siz qishloqning ipidan ignasigacha biladigan obro‘li odamsiz. Men esa yangiman. Xo‘sh, shu xumni to‘ldiradigan odamni qayerdan topaman? Menga birov ishonarmidi... Ikkinchi tomondan, juda shov-shuv qilishning ham tarafdori emasman. Otamning aytganlarini bajarib, ko‘nglimni xotirjam qilсам bas.

— Juda yaxshi kelibsiz!.. — dedi-yu, shu gapidan so‘ng Muhsin guppini qattiq yo‘tal tutdi. Aslida bu yo‘tal emas, sevinchdan otilib chiqayotgan kulgisini xaspo‘shlovchi soxtalik edi. — Juda to‘g‘ri va oqilona yo‘l, deya Muhsin guppi ko‘zyoshlarini artdi. — Ovoza qilish shart emas. Bu savob ishingizni o‘zim uddalab beraman. Gah desam qo‘limga qo‘nadigan ikkita odamim bor. Bechoralar juda kambag‘al. Aytaman, o‘zim boshida turib bajarib beraman. A?

— Bo‘pti, men rozi! Rahmat sizga! — Nasriddin o‘rnidan turdi.

— Bo‘lmasa ishni bugundan qoldirmaylik, mulla aka. Yana otamning arvohi urib yurmasin meni. Kechasi tushimga kirib.

— Juda yaxshi! — Muhsin sevinchdan qafasdagi qushday potirloyotgan yuragini qo‘li bilan bosdi. Nasriddin ketish taraddudida eshik tomon yurdi-yu, ilkis to‘xtadi:

— Na, aytmoqchi! — dedi u bir narsani hozirgina eslagandek. — Boyagi otam aytgan xumlari hech qachon bog‘da turmasdi. Ertalab uyg‘onib qaragam, xuddi aytganlaridek, bog‘ning o‘rtasida chorak bo‘yi ko‘milib, tippa-tik turibdi!

— Yo tavba! — Muhsin yoqa ushladi.

Nasriddin Afandi eshagiga mindi-da, iltijo qildi:

— Kutaman, mulla aka, xudo xayringizni bersin, shu ishimni tezroq bitirishga yordam bering!

Nasriddin ketdi. Muhsin guppi sal uzoqlashishini kutib turdi-da, sevinganidan baqirib yubordi:

— Tursunali! Alimsho!

Ichkaridan uzun-qisqa bo‘lib ikki kishi yugurib chiqdi...

(Zohir A‘lam)

2-topshiriq. Matnda qo‘llangan so‘z-gaplar o‘rniga ularning yana qanday sinonimlarini qo‘llash mumkin?

120-mashq. 1-topshiriq. Quyda berilganlar ichidan sof so‘z-gaplarni ajrating va ulardan qaysi biri so‘z-gaplashgan so‘z-gaplarga misol bo‘lishini ayting.

Shubhasiz, balki, modomiki, albatta, mutlaqo, alhamdulillah, mang, eh, hoy, oh, yo‘q, hatto, durust, to‘g‘ri, rost, so‘zsiz, menimcha, sizningcha, aslo, hargiz, mana mundoq

2-topshiriq. Sifat so‘z turkumidan kelib chiqqan so‘z-gaplarni aniqlang.

121-mashq. Ushbu so‘z-gaplarni guruhlarga ajrating.

1)chamasi, chog‘i; 2)ura, olg‘a; 3)boshlang; 4) durust, to‘g‘ri; 5)xudo saqlasin; 6) oppog‘im; 7)mutlaqo; 8) voy o‘lay; 9) yashang; 10)baxtga qarshi; 11)hargiz; 12)mana bundoq.

№	So‘z-gaplarning guruhlari	So‘z gaplar
1.	W [^] -lashgan	
2.	W [^] -lashayotgan	
3.	W [^] -simon	

Javob:

№	So‘z-gaplarning guruhlari	So‘z gaplar
1.	W [^] -lashgan	1,...
2.	W [^] -lashayotgan	4,...
3.	W [^] -simon

So‘z-gap bo‘yicha tahlil namunasi

— *Albatta, albatta, — dedi Sulaymonov jiddiy qiyofada, — masalan: baliq ko‘p yaxshi narsa – qovurilsa shirin bo‘ladi!* (A.Qahhor “Ikki yorti – bir butun”)

1. So‘z-gapning ma’noviy guruhiga ko‘ra: modal so‘z-gap;
2. So‘zlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabatiga ko‘ra: ishonch ma’nosida;
3. Lisoniy qurilish qolipi: [W[^]].

— *Oh-oh-oh! Otangizga rahmat! (A.Qahhor “O‘jar”).*

1. So‘z-gapning ma’noviy guruhiga ko‘ra: undov so‘z-gap;
2. Undov so‘z-gapning ifoda xususiyatiga ko‘ra: his-tuyg‘u undovi;
3. Lisoniy qurilish qolipi: [W[^]].

— *Janoblari ota kasbini ushlabdilar-da! – dedim.*

— *Yo‘q, mutlaqo! – dedi mehmon, -- men jurnalistman!*

(A.Qahhor “Dumli odamlar”)

1. So‘z-gapning ma’noviy guruhiga ko‘ra: inkor so‘z-gap;
2. So‘zlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabatiga ko‘ra: inkor ma’nosida;

3. Lisoniy qurilish qolipi: [W^].

— *Qani, kel endi, oshingni suz! – dedi. (A. Qahhor “Asror bobo”)*

1. So‘z-gapning ma’noviy guruhiga ko‘ra: taklif-ishora so‘z-gap;

2. Lisoniy qurilish qolipi: [W^].

Keys topshiriq

I. Ushbu gaplardagi so‘z-gaplarni toping va ular qaysi so‘z turkumidan o‘sib chiqqanini izohlang.

– Nafsi uchun emas, balki qadri uchun yig‘laydi-da. 2. – Qayerga borish, kinga uchrashishni u yaxshi biladi. – To‘ppa - to‘g‘ri. 3. Hilola gapning to‘g‘risini aytdi. 4. Sen hali shunday talaba bo‘lasanki... –Xudo xohlasa. 5. Havo bulut, yomg‘ir yog‘sa kerak. –Shubhasiz. . Ehtimol, bu onasidan yagona esdalik. 7.–Yengil tortdingmi, qizim? – Shukur. 8. Xullas, bundan buyon siz doim shu yerda yashaysiz.

II. So‘z-gaplar gap vazifasida kela olishiga sabab bo‘lgan asosiy xususiyatlarni sanab o‘ting va shunga ko‘ra modal so‘zlardan qanday farqlanishini ham izohlang.

III. Yuqorida berilgan hamda ushbu so‘z-gaplarni ma’noviy guruhlarga ajrating.

xullas, demak, voy, ha, mayli, oh, barakalla, rahmat, aslo, sira, ofarin, beh-beh, chuh, chamasi, tabiiy, ehtimol, shubhasiz, shekilli, xo‘sh, xo‘p, eh, yo‘q, pisht, mutlaqo, ma, mang, pisht-pisht, qani, marhamat

Modal	Undov	Tasdiq-inkor	Taklif-ishora

IV. “Aqliy hujum” o‘yini orqali so‘z-gaplarga xos xususiyatlarni umumlashtirish.

1. So‘z-gapning o‘rganilish tarixi.
2. So‘z-gaplarning ma’no guruhlari. 3. So‘z-gaplarning tuzilishiga ko‘ra turlari (misollar bilan).
4. Kiritmalar va kirish gaplardan farqli jihatlari. 5. So‘z-gaplarning leksik-semantik xususiyatlari.

Test topshiriqlari

1. So‘z-gaplarga oid quyidagi qaysi fikr noto‘g‘ri?

- A) So‘z-gaplar mustaqil holda gap bo‘la oladi.
- B) Gap tarkibida shu gapning bo‘laklari bilan sintaktik aloqaga kirisha oladi.
- C) O‘ziga xos g‘ayrioddiy ma’noga ega.
- D) Bog‘lamalar bilan birika olamaydi va shuning uchun mayl, zamon, shaxs-son shakllariga ega emas.

2. Quyidagi gapda ostiga chizilgan so‘z to‘g‘ri izohlangan javobni belgilang.

- Ertaga kelasizmi?
- Albatta.

- A) Undov so‘z-gap
- B) Tasdiq so‘z -gap
- C) Kirish so‘z –gap
- D) Modal so‘z-gap

3. So‘z-gaplar o‘z ichida nechta ma’noviy guruhga bo‘linadi?

- A) 4 ta
- B) 5ta
- C) 3ta
- D) 2ta

4. Qaysi qatorda vazifadosh modal soʻzlar berilgan?

- A) balki, ehtimol, chamasi, aftidan
- B) afsuski, haqiqatdan, avvalo, xullas
- C) albatta, shekilli, tabiiy, toʻgʻri
- D) attang, umuman, taxminan, shubhasiz

6. Qaysi gapdagi modal soʻz fikrning tartibini bildiradi?

- A) Nihoyat, unday inson ham koʻrindi.
- B) Alqissa, xaloyiq va har tarafdin kelgan kishilar toʻda boʻlishib maslahat qildilar.
- C) Darhaqiqat, chang- toʻzon ancha narilab, Karki tomonga ketardi.
- D) Xullas, kayfiyatim chogʻ edi.

7. “Binobarin” soʻzi ... turkumiga oid soʻz?

- A) Modal soʻz
- B) Ravish
- C) Yuklama
- D) Koʻmakchi

Foydalangan adabiyotlar

Kirill alifbosidagi adabiyot

1. Айюб Гуломовнинг илмий мероси (2-китоб). Р.Сайфуллаева муҳаррирлигида. –Т., 2007.
2. Айюб Гуломовнинг илмий мероси (3- китоб). Морфемикага оид Мақ.алар. –Т., 2007.
3. Аъламова М. Ўзбек тилидаги феълда нисбат категорияси: монография. –Т.: Фан, 1992.
4. Бахриддинова Б. Ҳозирги ўзбек тили (қўшимчалар таснифи юзасидан материаллар). – Қарши: Насаф, 2004.
5. Бахриддинова Б.М. Феъл лугавий шакли тизими. Феълнинг тур категорияси: филол. фан. номзоди... дис. автореф. –Самарқанд, 2002.
6. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида гап синтаксиси ва сўз-гапларнинг систем-структур талқини. –Т.: Фан, 2006.
7. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш. –Т.: Фан, 1995.
8. Зиёева И. Келишиқ аффиксларининг функционал алмашинишувларига доир баъзи мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1966, 2- сон.
9. Зикриллаев Ғ. Истиқлол ва адабий тил. –Т.: Фан, 2004.
10. Зикриллаев Ғ. Феълнинг шахс, сон ва хурмат категорияси системаси. –Т., 1990.
11. Зикриллаев Ғ. Ўзбек тили морфологияси. –Бухоро, 1994.
12. Иванов С.Н. Грамматик тадқиқотларнинг методологик муаммолари. Монография. Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси. –Самарқанд: СамДУ нашри, 2004.
13. Мадраҳимов И. Сўзнинг серқирралиги ва уни тасниф қилиш асоси: филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. –Т., 1994.
14. Махмудов Н., Миртожиев М. Тил ва маданият. –Т.: Ўзбекистон, 1992.
15. Менглиев Б., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Қарши, 2005.

16. Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва сатҳлараро муносабатлар: филол.фан.докт.дисс. –Т.: 2002.

17. Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусияти ва синтактик имкониятлари: филол. фан. номз. дисс... автореф. –Т., 1996.

18. Миртожиев М. Мажхул нисбат масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985. -№ 2.

19. Миртожиев М. Ўтимсизлик ва ўзлик нисбати//Ўзбек тили ва адабиёти, 1983. -№ 2.

20. Мусулманова Н. Грамматик шаклда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категорияси мисолида): филол.фан.номз.дисс. –Т., 2007.

21. Мухамедова С.Х. Ўзбек тилида ҳаракат феълнинг семантик ва валентлик хусусияти: филол.фан.докт.дисс. –Т., 2007.

22. Неъматов Ҳ. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари//Ўзбек тили ва адабиёти, 1993, 2- сон.

23. Неъматов Ҳ., Фуломов А., Қодиров М., Абдураимова М. Она тили. - синф учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2000.

24. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. –Т.: Фан, 1989.

25. Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухамедова Д.А., Нурманов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков. Тезиси формально-функционального исследования // Советская тюркология. 1984. -№ 5.

26. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Т.: Янги аср авлоди. 2001.

27. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида лексик градуонимия: филол. фан. номз. дисс. ... автореф. –Т., 199`.

28. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. –Т., 1989.

29. Содикова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. –Т.: Фан, 1974.

30. Султонсаидова С. Ўзбек тилидаги грамматик категориянинг ўзаро муносабати: филол. фан. докт. дисс. автореф. –Т., 1994.

31. Тожиёв Ё. Ўзбек тили морфемикаси. –Т., ТошДУ, 1992.

32. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари учун. 3-нашри. –Т.: Ўзбекистон, 1992.

33. Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфология. Лексикология. –Т.: Ўқитувчи, 1995.

34. Шаҳобиддинова Ш.Ҳ. Грамматик маъно талқини хақида: филол. фан. номз.... дис. автореф. –Самарқанд, 1993.

35. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтлари учун дарслик. –Т., 1980.

36. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. Мас. мух. Ғ.А.Абдурахмонов ва бошқ. –Т.: Фан, 1972.

37. Қодиров З. Ўзбек тили грамматик категориясини систем тадқиқ этиш (Келишик категорияси): филол.фан.номз.дисс.автореф. –Самарқанд, 1993.

38. Курбонова М. Шакл-вазифавий тадқиқ усуллариға //Ўзбек тили ва адабиёти, 1998, 5- сон.

39. Қўнгуоров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусияти. –Т.: Фан, 1980.

Лотин алифбосидаги адабиётлар

1. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -- Qarshi, 2005.

2. Ne'matov N., G'ulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. Ona tili. 6- sinf uchun darslik. –Т., 2001.

3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Т., 2006.

MUNDARIJA

So‘zboshi	3
Derivatsion va grammatik morfemalar	7
Keys topshiriq	13
Morfemik tahlil namunasi	16
Test topshiriqlari.....	16
Morfologiya (mustaqil so‘z turkumlari)	18
Fe‘l so‘z turkumi. Fe‘l lug‘aviy ma’no guruhleri	18
Fe‘l derivatsiyasi	20
Fe‘lning tasniflovchi grammatik kategoriyalari.....	23
Fe‘llarda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi.....	26
Keys topshiriq	28
Fe‘l so‘z turkumi bo‘yicha tahlil namunasi	29
Test topshiriqlari.....	30
Ot so‘z turkumi. Ot so‘z turkumi lug‘aviy ma’no guruhleri	32
Ot derivatsiyasi.....	33
Otning tasniflovchi grammatik kategoriyalari.....	36
Ot so‘z turkumida aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi.....	38
Keys topshiriq	42
Ot so‘z turkumi bo‘yicha tahlil namunasi.....	43
Test topshiriqlari.....	44
Sifat so‘z turkumi. Sifat so‘z turkumi lug‘aviy ma’no guruhleri	46
Sifat derivatsiyasi	50
Sifatning tasniflovchi grammatik kategoriyalari.....	54
Sifat so‘z turkumida aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi.....	56
Keys topshiriq	57
Sifat so‘z turkumi bo‘yicha tahlil namunasi	59

Test topshiriqlari.....	59
Son so‘z turkumi. Son so‘z turkumi lug‘aviy ma’no guruhlari	62
Sonning grammatik xususiyatlari	65
Keys topshiriq	69
Son so‘z turkumi bo‘yicha tahlil namunasi	71
Test topshiriqlari.....	71
Ravish so‘z turkumi. Ravish so‘z turkumi lug‘aviy ma’no guruhlari	74
Ravish derivatsiyasi.....	76
Keys topshiriq	81
Ravish so‘z turkumi bo‘yicha tahlil namunasi.....	81
Test topshiriqlari.....	82
Taqlid so‘z turkumiga oid topshiriqlar	84
Keys topshiriq	87
Taqlid so‘z turkumi bo‘yicha tahlil namunasi	88
Test topshiriqlari.....	89
Olmosh so‘z turkumiga oid topshiriqlar	91
Keys topshiriq	98
Olmosh so‘z turkumi bo‘yicha tahlil namunasi	99
Test topshiriqlari.....	99
Yordamchi so‘z turkumlariga oid topshiriqlar	102
Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama bo‘yicha tahlil namunasi.....	111
Keys topshiriq	112
Test topshiriqlari.....	114
So‘z- gap(semantik-funksional shakllangan so‘z - gap) larga oid topshiriqlar	116
So‘z- gap bo‘yicha tahlil namunasi	119
Keys topshiriq	120
Test topshiriqlari.....	121
Foydalangan adabiyotlar	123

M.Abuzalova, G.Toirova

HOZIRGI O‘ZBEK TILI

(Morfologiya)

O‘quv qo‘llanma

«Tafakkur avlodi» nashriyoti, 2020

Muharrirlar:	Abdukamol Abdujalilov
Texnik muharrir:	Yunusali O‘rinov
Badiiy muharrir:	Shoimov Zuxriddin
Musahhiha:	Dilfuza Beknazarova
Dizayner:	Yunusali O‘rinov

Nash.lits. № 2013-975f-3e5e-d1e5-

f4f3-8537-2366, 20.08.2020 y.

Terishga 24.08.2020-yilda berildi. Bosishga 7.11.2020-yilda ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times New Roman» garniturasida. Shartli b.t. 8.0. Nashr b.t. 7.44.

Adadi 400 nusxa. Buyurtma №19.

Bahosi shartnoma asosida.

«Tafakkur avlodi» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri, Yunusobod-9, 13-54. e-mail: tafakkur_avlodi@mail.ru

«Tafakkur avlodi» MCHJ bosmaxonasida bcsildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Nodira ko‘chasi, 1-uy.
Telefon: +99890 000-33-93



«Tafakkur avlodi»
nashriyoti

ISBN 978-9943-6690-4-8



9 789943 669048